

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

O'ZBEK FILOLOGIYASI KAFEDRASI

**V 5220100 O'ZBEK FILOLOGIYASI YO'NALISHI UCHUN
"O'ZBEK TILSHUNOSLIGI TARIXI" FANIDAN TAYYORLANGAN**

MA'RUZALAR MATNI



NUKUS - 2012

1-MA'RUZA. KURSNING MUNDARIJASI VA VAZIFALARI

R E J A:

1. Kursning mazmuni.
2. Arablar istilosi davrida tilshunoslik
3. Abu Nasr Forobiyning lingvistik qarashlari
4. Abu Rayxon Beruniyning lingvistik faoliyati

VII asrlarda arablar Muhammad payg'ambarning safdoshi xaliva Abubakir etakchiligida islom boyrog'i ostida Arabiston yarim orolini, YAqin va O'rta SHarq mamlakatlarini, SHimoliy Afrika, Ispaniya, O'rta Osiyo va Kavkaz orti mamlakatlarini bosib olib 632 yilda yirik Arab xalifaligiga asos soldilar. Bu xalifalik 1258 yilga qadar, yahni mo'g'ullar tomonidan bitirilgunga qadar hukmronlik qildi.

Xalifalik rang barang el-elatlardan tashkil topgan juda keng xududni o'zida birlashtirgani tufayli, uni boshqarish qiyin kechar, o'zaro ichki feodal kurashlar va xalq qo'z'golonlari tez-tez bo'lib turar edi. Ana shunday kurashlar va xalq qo'z'golonlari ta'siri ostida VIII asrning oxirlaridan mayda-mayda qismlarga bo'linib ketdi: Idrisiylar (789-926), ag'labiylar (800-909) davlatlari vujudga keldi. Eron va Mavorounnahrda IX asrning 20-yillaridan boshlab tohiriylar (821-873), safforiylar (867-1495) va somoniylar (819-1005) o'zlarining mustaqil boshqaruviga ega bo'ldilar. Ular arab halifaligiga nomigagina tobe bo'lib, aslida alohida-alohida mustaqil davlatlar edilar. Bu davlatlarni xalifalik tomonidan yuborilgan noiblar boshqalar va xalifalikka xiroj, jufhya (jon solig'i) va o'lpon to'lab turar edi.

Ana shunday katta xududda islom dini keng quloch yoydi. Arab tili din tili, fan tiliga aylandi. Xalifalik xududida yashagan barcha din va fan ahli, qaysi xalqqa mansub bo'lishidan qathiy nazar, o'z asarlarini arab tilida yozdilar. SHuning uchun ham dunyoga arab madaniyati deb shuhrat qozongi madaniyatning shakllanishi va ravnaq topishida arablardan tashqari arab bo'lmagan xalq vakillarining ham xizmatlari kattadir. Ana shu orasida Forobiy, Beruniy, Ibn Sino kabi ko'plab bining ajdodlarimiz borligidan faxrlanamiz.

O'rta asrning dunyoga dong taratgan allomalaridan biri Forobiydir. Uning nomi YAqin va O'rta sharqda o'sha davrdayoq o'ta mashxur bo'lgan al-Kindiy, ar-Roziy, Ibn Sino, Beruniy, Ibn Ro'shd singari bir kator buyuk mutafakkirlar ichida alohida ajralib turadi. Forobiy aql va ilm tantanasi uchun, ma'naviy ozodlik uchun, inson takomili, adolatli jamiyat uchun kurashgan mashxur olimdir. (1.3.). U riyoziyot va falakiyot, tabobat va musiqa, mantiq va falsafa, tilshunoslik va adabiyotshunoslik kabi bir qator soxalarda qalam tebratgan va ularning barchasida ajoyib asarlar yozgan qomusiy bilim egasi sanaladi.

Abu Nasr Forobiy hijriy 260 (melodiy 873) yilda Aris daryosi Sirdaryoga quyiladigan Forob (O'tror) qishlog'ida tug'iladi. U dastlabki savodini Forobda chiqargandan so'ng SHoshda o'qishni davom ettiradi. So'ngra Samarqand va Buxoroda tahlim oladi. O'sha davrdagi barcha bilimdonlar Arab halifaligining markazi - Bag'dodga intilgan va u erda katta obro'-ehtibor topganlar. Forobiy ham Bog'dodda o'qishini davom ettirdi. Umrining oxirgi yillarida Halabda, so'ngra Damashqda yashagan. SHu erda melodiy 930 yili vafot etgan.

Abu Nasr Forobiy tilshunoslik yuzasidan ham ajoyib fikrlar yuritadi.

Avvalo, hozirgi tilshunoslikning falsafiy masalalari ichida markaziy o'rinni egallagan bilishning ikki bosqichi (hissiy va idrokiy), umumiylik-xususiylik. mohiyat-hodisa dialektikasi haqida o'zining "Falsafatu Aristutalis" asarida qiziqarli mahlumot beradi. Forobiyning fikricha, faqat insongina bilimga intiladi. Inson o'zini qurshab turgan olamni va o'zini o'zi bilish orqali eng etuk mavjudotga aylanadi. Bilish insonning mohiyati. Bilishdan maqsad haqiqatga erishmoqdir, - deydi muallimus-soniy. Har qanday bilish, dastavval, o'zini qurshab turgan olamdagi narsa va hodisalarni kuzatishdan boshlanadi. CHunki tafakkur faoliyati bilan hosil qilingan mohiyat o'zining tabiiy asosidan oldin bo'lishi mumkin emas (2.3). Bu fikrlar V.Gumbolpdt fikrlariga qanchalar hamoxang ekanligini, lekin V.Gumbolpddan 900 yil oldin aytilganini payqash qiyin emas.

Forobiy o'zining gnoseologik ta'limotida konkret borliqdan umumlashmalarga, abstrakt tafakkurga, ideal dunyoga borishni tavsiya etadi.

Mohiyat va uning bevosita kuzatishda gavdalanishi o'rtasidagi munosabatni ochish uchun Abu Nasr predikat (mahmul) tushunchasiga katta ehtibor berdi. Ong konkret borliqning umumlashgan mohiyati sifatida baholandi. Predikat mohiyatning ajralmas hossasi deb qaraldi. Forobiy mohiyat va uning yashashi o'rtasidagi munosabati narsa va uning xossasi, substantsiya va atribut munosabatiga tenglashtiradi (7.51).

Forobiy inson ongining ikki turli bo'lishini ko'rsatadi: 1) ichki (intuitiv) ong, 2) tashqi, hosil qilingan ong. Uning fikricha, birinchisi tabiat tomonidan beriladi. Ikkinchisi esa tabiatdan maqsadga qo'ra olinadi.

Abu Nasr shunga muvofiq inson bilimni ham ikkiga bo'ladi: 1) tug'ma; 2) o'qish va tajriba asosida erishilgan bilim. Yangi tug'ilgan bolada bilish imkoniyati, bilish ruhi bor. U tug'ma. SHu bilan birga inson sezgi ahzolari bilan ana shu imkoniyatni yuzaga chiqaradi. Atrof-muhitni bilib boradi. Nom va tushunchalar sezgi ahzolarimiz mahsulidir. U avloddan - avlodga beriladi. SHuning uchun ular tug'ma emas, balki qabul qilingan bilimlardir.

Ayrim Ovrupo olimlari Forobiyni Arastu falsafiy ta'limotining targ'ibotchisi, o'zining falsafiy ta'limoti yo'q, deb qaraydilar. Bu yanglish qarashdir. Forobiy Aflotun, Arastu ta'limotini chuqur o'zlashtirgan, Arastu ta'limotini mahkul deb hisoblagan holda, faqat uning SHarqqa targ'ibotchisi bo'lib qolgan emas. Arastu qarashlariga tanqidiy baho beradi va o'zining original qarashlarini bayon qiladi. Xususan, Arastu ilohiy ongni birinchi planga qo'yib, bu ongsiz hech narsani bilish, fikrlash mumkin emas, desa, Forobiy bunga zid ravishda ong miya, nerv, muskullarning faoliyat mahsuli ekanligini ta'kidlaydi. (7.52)

Forobiy narsaning obhektivligini, uning mavjudligi bizning sezgi ahzolarimizga ta'sir etishini e'tirof etadi. (1.74). Biz faqat o'zimizni qurshab turgan olamdagi narsalarni sezgi ahzolarimiz orqali bilib olamiz. Ushlash. qo'l tegizish yo'li bilan olingan bilimga kuvvai lomisa, ko'rish orqali olingan bilimga esa kuvvai nigohiy atamalarini qo'llaydi. SHu bilan birgalikda eshitish sezgisi orqali, nutq vositasida ham bilimga ega bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi. Bunday bilim kuvvai notiqqa sanaladi.

Hozirgi kunda struktur tilshunoslikning glossematik yo'nalishida keng tarqalgan o'zgarimas, barqaror (konstanta) birliklarning o'zgaruvchan (aktsident) birliklarga zidlanishining ildizlari ham Forobiy asarlarida uchraydi. Avvalo, u har qanday rivojlanishning, o'zgarishning asosida ziddiyatlar yotishini e'tirof etadi. Forobiy "Falsafatu Aristutolis" asarida shunday yozadi: "Beadad ziddiyatlar bir-birlarini almashtirib turadilar. Ushbu tanovoblarda (almashinib turishlarda) bitta o'zgarimaydigan doimiy narsa bor. U ushbu tanovoblarni saqlab turadi va ularga singib ketadi. Narsalar bir-biriga ergashib va o'zgarib turganlari holda, doimiy bo'lib keladigan narsani "Javhar" (substantsiya) deb ataladi, almashinib va o'zgarib turuvchi narsalarni "Oraz" (aktsidentsiya) deyiladi. (1.75).

Bu tushunchalar keyinchalik tasavvuf falsafasiga ham asos bo'ldi va ular bu ikki tushunchani "zot" va "tazohir" (tajalli) atamalari bilan nomladilar.

Forobiy bizning ongimizdan tashqarida bo'lgan obhektiv narsalarning tabiiy sifatlar va mohiyat birligi ekanligini ta'kidlaydi (1.74). Bunday ko'rinadiki, keyinchalik javhar, zotga majmuati sifat va asmo deb qaralishida ham Forobiyning ta'siri mavjud.

Abu Nasr Forobiy : "Fozil odamlar shahri" asarida inson foziligining muhim belgilaridan biri sifatida quvvai notiqani ajratadi. Uning fikricha, inson dunyoga kelishi bilan, o'zini boqadaigan quvvatga ega bo'ladi. Bu g'izolantiruvchi quvvat sanaladi. Undan so'ng inson o'z takomili yo'lida turli quvvatlarni qo'lga kiritadi. Masalan, mutoxayyila kuvvati (xayol qilish, umumlashgan obrazlar yaratish), aql quvvati va boshq. Insonning olamni bilish jarayonida notiqqa qavvatining xizmati katta ekanligini ta'kidlaydi. (7.151)

Forobiy insonning kamoloti yo'lida qo'shilib boradigan quvvatlarni tavsiflar ekan, bilishning ikki darajasi - hissiy bilish bilan idrokiy bilish (umumlashtiruvchi bilish) ni bir biridan ishonarli ravishda farqlaydi.

Forobiyning tilshunoslik haqidagi fikrlari ayniqsa "Fanlar tasnifi xakidagi so'z" asarida yorokin o'z ifodasini topgan.

Hozirgi kunda leksika, grammatika singari atamalarning ikki ma'noda qo'llanilishi, deyarli barcha adabiyotlarda qayd etiladi: birliklar sistemasi, ikkinchisi esa shu sistemani o'rganadigan fan sohasi. Bunday fikrning ildizlari ham Forobiyga borib taqaladi. U til haqidaga fanning ikki qismdan iboratligini ta'kidlaydi. Birinchisi mahlum tilda mavjud bo'lgan so'zlarni xotirada saqlash va nimani ifodalashini bilish. Ikkinchisi esa bu so'zlarni boshqarib turadigan qonunlarni bilish. Muallif har qanday sanhatda qonun universal, keng qamrovli ekanligini ko'rsatadi.

Forobiy so'z ma'nolarini ham tasnif etadi. Uning fikricha, so'z manosi ikki turli bo'ladi: sodda va murakkab. Odam, hayvon singari olamdagi bir turdagi narsa va hodisalarni atash vazifasini bajaruvchi alohida so'zlar sodda; narsa va uning belgisini bildiruvchi Bu odam hayvon kabi ifodalar esa murakkab sanaladi.

Forobiy atoqli va turdosh otlarni ham farqlaydi. U sodda ma'noli so'zlarni ikkiga bo'ladi: 1) Atoqli otlar. Masalan, Zayd, Amr kabi; 2) tur va jinsni ko'rsatadigan so'zlar. Masalan, odam, hayvon, ot kabi. Tur va jins bildiruvchi so'zlar asosida muallif so'z turkumlarini tasnif etadi. Forobiy tur va jins bildiradigan so'zlarni arab grammatika maktablari anhanalari asosida ot, fe'l va yuklamalarga ajratadi. SHuningdek, ot va fe'llarning grammatik kategoriyalari haqida ham mahlumot beradi. Xususan, ot va fe'llar uchun jins (erlik-xotinlik), son (birlik-ikkilik-ko'plik) kategoriyalari xos ekanligini, shu bilan fe'llarning o'ziga xos belgisi zamon (o'tgan-hozirgi-kelasi zamon) bildirishi ekanligini ta'kidlaydi.

Forobiy tilshunoslikning mundarijasi haqida ham fikr yuritadi va olti bo'limdan iborat ekanligini, har qaysi bo'limning o'z tekshirish obhekti mavjudligini bayon qiladi. Ular quyidagilardan iborat: 1) Sodda so'z haqida fan. 2) So'z birikmalari haqida fan. 3) Sodda so'z qonunlari haqidagi fan. 4) So'z birikmalari qonunlari haqidagi fan. 5) YOzuv qonunlari va to'g'ri talaffuz (orfoepiya) haqidagi fan. 6) SHE'r tuzilishi qoidalari haqidagi fan.

SHunday so'ng har bir bo'limda nimalar o'rganilishi haqida mahlumot beriladi. Asarda ta'kidlanishicha, sodda so'z haqidagi fan har biri alohida so'z nimani bildirishi haqidagi bilimlarni, tur va jins munosabatini, ularni xotirada saqlash, bayon qilish, boshqa tillarda so'z olish masalalari bilan shug'ullanagan.

So'z birikmasi haqidagi fan mahlum xalq tilida uchraydigan nutqning qismlarga bo'linishini bilish, mashhur oratorlar, shoirlar yaratgan nutq turlarini bilish bilan shugullanadi.

Sodda so'z qonunlari haqidagi fan, avvalo nutq tovushlarini (harflarni), undosh tovushlarning paydo bo'lishi o'rnini, unli tovushlar va ularning xususiyatlarini so'zga qo'shimchalar qo'shilganda ro'y beradigan fonetik o'zgarishlarni, so'zning fonetik modeli, sodda va qo'shma so'zlar, yasama so'zlar namunalari (modeli), ot va fe'llarning o'zgarishi (shaxs, son, zamon bilan o'zgarishi), talaffuzi qiyin so'zlar va ularning talaffuzini engillashtirish yo'llari kabilarni o'rganadi.

So'z birikmasi qonunlari haqidagi fan ikki qismdan iborat 1) ot va fe'llarning "oxiri" (qo'shimchalari) qoidasi; 2) so'z qismlarining qo'shilish qoidalari. So'z oldiga qo'shiladigan, so'z qismlarining so'z oxiriga qo'shiladiganlar. O'zgaradigan so'zlarga va o'zgarmaydigan so'zlarga bo'lish. Otlarning o'zgarishi va fe'llarning o'zgarishi kabi masalalarning shu bo'limda o'rganilishi ko'rsatiladi.

YUklamalari haqidagi fan o'zgarmaydigan so'zlarni o'rganishi ta'kidlanadi.

So'z birikmalari haqidagi bo'limda esa so'zlarning qanday qo'shilish qoidalari va hukm bildirish o'rganiladi, so'zlarning qo'shilish turlari aniqlanadi. Qanday qo'shilish chiroyli ekanligi ko'rsatiladi.

YOzuv haqidagi fanda esa she'r o'lchovlari, har bir she'r qanday tovushlardan va bo'g'inlardan tashkil topganligi, to'liq va noto'liq o'lchovlar, qaysi o'lchov yoqimli va chiroyli ekanligini o'rganish qayd etiladi. SHu bo'limda qaysi so'zlar poeziyada va qaysi so'zlar prozada qo'llanilishi, qaysilari poeziyada, qaysilari prozada qo'llanilmasligi bayon qilinadi.

Bundan ko'rinadiki, Forobiy bugungi tilshunoslik bo'limlari: fonetika, leksika, morfologiya, sintaksis, orfografiya, orfoepiya, stilistika haqida, ularning o'rganish obyektlari haqida ilk ma'lumotni beradi.

Forobiy grammatika bilan mantiqning o'zaro uzviy aloqador ekanligini ko'rsatadi. Uning fikricha "Qanday qilib tahlil berish va tahlil olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, qanday so'rash va qanday javob berish (masalasi)ga kelganimizda, bu haqida ilmlarning eng birinchisi jismlarga, ya'ni substantsiya va aktsidentsiyalarga ism beruvchi til haqidagi ilmdir... Ikkinchi ilm grammatikadir. U jismlarga berilgan ism (nom)larni qanday tartibga solishni hamda substantsiya va aktsidentsiyaning joylashishiga va undan chiqadigan natijalarni ifodalovchi hikmatli so'zlarni va nutqni qanday tuzishni o'rgatadi. Uchinchi ilm mantiqdir. U ma'lum xulosalar keltirib chiqarish uchun mantiqiy figuralarga binoan qanday qilib darak gaplarni joylashtirishni o'rgatadi. Bu xulosalar yordamida biz bilinmagan narsalarni bilib olamiz hamda nima to'g'ri va nima yolg'on ekanligi haqida hukm chiqaramiz (1.179).

Forobiy tildagi umumiy va xususiy belgilar dialektikasini ham ochib beradi. Uning ta'kidlashicha har bir til o'ziga xos belgilarga ega. SHu bilan birga hamma tillar uchun xos bo'lgan tushunchalar ham mavjud. Masalan, ot, fe'l, yuklama arab tilida ham, grek tilida ham bor. Bunday bo'linish boshqa tillarda ham uchraydi. Arab grammatikachilari ot, fe'l, yuklamalarni arab tili materiallari asosida, grek grammatikachilari esa grek tili materiallari asosida o'rganadilar.

Har bir tilning grammatikasi shu tilning o'ziga xos jihatlarini o'rganish bilan birga, boshqa tillarda ham uchraydigan umumiy tomonlarga ham ehtibor beradi (2.40).

Ko'rinadiki, Forobiy bugungi til falsafasi uchun g'oyat muhim bo'lgan bir qator tushunchalarga (konstanta-aktsidentsiya, zot- tazohir, umumiylik-xususiylik; fahmiy (hissiy) bilish-idrokij bilish) asos solgan ulug' faylasuf bo'lish bilan birga, tilshunoslikning umumiy masalalarini, uning mundarijasini yoritib bergan ulkan tilshunos olim hamdir. Uning tilshunoslik bo'yicha bildirgan ko'pgina fikrlari bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotgan emas.

Dunyo madaniyati va ma'naviyati taraqqiyotiga o'lgan hissa qo'shgan, fan tarixida juda katta iz qoldirgan qomusiy olimlarimizdan yana biri Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al Beruniydir.

Beruniyning hayoti va ijodiy faoliyatini yoritishda bag'ishlangan bir qancha asarlar mavjud SHuning uchun ham biz olimning hayotiga doir ayrim ma'lumotlarni keltirish bilan cheklanamiz.

Beruniy U.I.Karimovning ta'kidlashicha, milodiy 973 yilning 4 sentyabrida (hijriy 362 yil zulhijja oyining 2 kunida) Xorazmning qadimiy poytaxti Qiyatda tavallud topadi. (1.13).

1009-1017 yillarda Xorazmshox Abu-l-Abbos Mahmud saroyida xizmat qilib, katta obro'-ehtibor topadi. 1017 yilda Mahmud G'aznaviy Xorazmni bosib olgandan so'ng Xorazmdagi bir qancha olimlari qator Beruniy ham G'aznaga yo'l olishga majbur bo'ladi va umrining oxiriga qadar shu erda ijod qiladi.

U o'z davridagi barcha fan tarmoqlari bo'yicha qalam tebratib, 150 dan ortiq asar qoldirdi. Bizgacha etib kelgan asarlari orasida "Xronologiya", "Hindiston", "Geodeziya", "Minerologiya", "Mahsud qonuni" va "Saydana" nomi bilan mashhur bo'lgan "Kitob As-Saydana Fi-t-tibb" asarlari tadqiqotchilar tomonidan maxsus o'rganildi va arab, rus, ingliz, nemis va boshqa bir qator tillarga tarjima qilinib nashr qilindi.

Beruniy ilmiy merosining nomidan ham ko'rinib turibdiki, olim tarix, riyoziyot, matematika, falsafa, handasa, kimyo, astronomiya, geografiya, tibbiyot, adabiyot, musiqa,

tilshunoslik singari o'nlab sohalar bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan va bu sohalar yuzasidan jahon allomalarini hozirgacha lol qoldirib kelayotgan buyuk kashfiyotlarini yaratgan.

Beruniy ilmiy xazinasining kaliti sanaluvchi tilga va tilshunoslikka ehtibor berdi. U yoshligida yunon, lotin, arab, fors, so'g'd, suryoniy tillarini chuqur o'rgandi. CHunki jahon tsivilizatsiyasining beshigi YUnoniston va Rumo o'lkalari bo'lib, antik madaniyat namunalarining barchasi shu tillarda yozilgan edi. Arab tili Beruni yyashagan davrda diniy tahlimot tili bo'lishi bilan birga asarlar arab tilida yozilar edi. Bularning hammasi bo'lajak allomani yuqoridagi tillarni sinchikovlik bilan o'rganishga dahvat etdi. Beruniy o'zini Xorazmiy tiliga mansub ekanligini, arab, fors tillarni esa keyin o'rganganligini ta'kidlaydi.

Sulton Mahmud G'aznaviy yurishlari davrida bir necha bor Hindistonga borishga musharraf bo'ldi. Beruniyni Hindiston o'ziga rom etdi va u erga safar chog'ida Hindiston tarixi, madaniyati, urf-odatlari, hayvon va nabotot olamini o'rganishga to'la bel bog'ladi. Buning uchun avvalo hind tili, eski hind tili bo'lgan sanskrit tilini puxta o'rgandi.

Umrining so'nggi yillarida Mahmud G'aznaviyning vorisi Mahsud sultonligi davrida 1048 yilda dorivor o'simliklar, hayvonlar va mahdanlar tavsifiga bag'ishlangan "Saydana" asarini yozdi.

Beruniyning tilga va tilshunoslikka bo'lgan qarashlari mana shu asarida yaqqol namoyon bo'ladi.

"Saydana"da muallifning yoshlik yillarida o'zini qurshab turgan olamni va olam uzvlarining turli tillarda qanday nomlanishini bilishga naqadar ishtiyoqmand ekanligi bayon qilinadi. Xususan olimning bolaligida uning yurtiga bir grek ko'chib keladi. Beruniy unga don, urug', meva, o'simlik va boshqa narsalar ko'tarib kelib, bular grek tilida qanday nomlanishini so'rganligi va grekcha nomlarini daftariga yozib olganligini bayon qiladi.

"Saydana"ning qimmatli tomoni shundaki, unda dorivor moddalarning bir necha tillardagi nomlari keltiriladi. Hatto bir o'simlik yoki modda bir tilningt turli shevalarida turlicha nomlanishi yoki aksincha, bir nom turli shevalarda turli o'simlik nomini bildirishi mumkin. Bu esa dorivor moddalardan amalda foydalanishini ancha qiyinlashtiradi. Aholiga foydalanish oson bo'lishi uchun modda nomining dialektial variantlarini ham ko'rsatadi. Bu Beruniyning narsa nomini bilish insonning ma'naviy boyligigina emas, balki katta moddiy boyligi bo'lishi mumkinligini, shuning uchun ham til o'rganishning tengsiz amaliy ahamiyati mavjudligini ta'kidlaydi.

Fikrining isboti sifatida asarning V bobida shunday rivoyat keltiradi. "Xorazm amirlaridan biri kasal bo'lib qiynaladi. Nihoyat Nishopurlik bir tabib uning kasaliga nima davo bo'lishi mumkinligi haqida retsept yozib yuboradi. Bu retseptni mahalliy dorishunoslarga ko'rsatadilar. Ular tavsiya etilgan bir dorivor o'simlikni hech aniqlay olmaydilar. SHunda bir kishi ular qidirayotgan dorivor o'simlikni topib berish mumkinligini, lekin narxi besh yuz dirham sof kumushdan kam bo'lmasligini aytadi. Amir mulozimlari rozi bo'lishadi. U kishi mulozimlarga o'simlik tomirini tutqazadi. Bu o'simlik tomiri o'zlari har kuni ko'rib yuradigan oddiy bir chayon o't tomiri edi. Mulozimlarning jahli chiqib, o'n besh dirhamga ham olmaydigan shu tomirni besh yuz dirhamga berasanmi? deb o'shqiradilar. SHunda giyofurush javob beradi: "Dorivor moddalar nomini bilish bebeho boylkdir. Sizlar shu o'simlikning nomini bilmaganliklaringiz tufayli kasalning qanchalar qiynalishiga sababchi bo'ldilaringiz, tillo bahosiga bo'lsa ham sotib rozi edilaringiz".

Nomning jamiyat hayotida shu qadar katta ahamiyatga ega ekanligini ehtiborga olib Beruniy "Saydana" asarida mahlum dorivor moddaning bir necha tillarda qanaday nomlanishini bayon qilish bilan birga har qaysi tildagi mahalliy nomlanishga ham katta o'rin beradi.

Beruniy ayrim mutaassib kishilar arab yozuvini olloh tomonidan yuborilgan deb ilohiy tus berayotgan bir paytda har qanday yozuv kabi insoniyatning kashfiyoti ekanligini e'tirof etadi. Lekin bu yozuvda ancha noqisliklar bor ekanligi, shuning uchun ham grek, lotin, hind

tilidagi asarlarning arab tiliga qilingan tarjimalarida ayrim nomlarni to'g'ri ifodalash qiyin, ko'p nomlar g'aliz berilishini bayon qiladi.

Olimning aytishicha, arab yozuvida "katta baxtsizlik" bor. Unli fonemalarning ifodalanmasligi, ko'p harflarning bir-biriga o'xshashligi va ularning ayrim nuqtalar orqaligina farqlanishi qator qiyinchiliklarga olib keladi. Agar nuqtalar tushib qolsa, ma'noning chiqmay qolishi, ayniqsa Dioskorid, Galen, Pavel, Oribaviy singari grek olimlarining familiyalarini to'liq va to'g'ri ifodalab bo'lmaligini ta'kidlaydi. SHuning uchun grek familiyalarini originalga qiyoslagan holda transkripsiya qiladi. SHuningdek, hind so'zlarini berishda bir qancha hind fonemalarining arab tili fonologik sistemasida yo'q ekanligini, shuning uchun arab yozuvi orqali ba so'zlarni to'g'ri ifodalab bo'lmasligini aytadi. Arab yozuviga forslardan foydalangan holda ayrim qo'shimcha harflar kiritadi.

"Saydana" asarini o'qir ekanmiz, Beruniyning qanchalar chuqur filologik bilimga ega ekanligi haqida to'liq tasavvurga ega bo'lamiz. U nazmning turli nazariy masalalariga bag'ishlab bir qator asarlar yozgan. SHu bilan birga o'zi ham arab tilida yaxshigina she'rlar ijod etgan.

O'zigacha bo'lgan yuzlab shoirlarning va bir qancha zamondosh shoirlarning asarlarini yoddan bilgan va bu she'rlardan ilmiy asarlarida fikrini dalillamoq uchun namunalar keltirgan. "Saydana"da 65 ta shoirdan 141 ta she'riy parcha beradi.

Beruniyning qadimgi arab poeziyasiga katta ehtibor berishi tasodifiy emas. CHunki yozuv madaniyatiga ega bo'lmay turib, arablar biror voqeani esda oson saqlab qolish uchun uni she'rga solganlar. Natijada she'r kishiga estetik zavq bag'ishlovchi vositagina bo'lib qolmay, axborotni avloddan avlodga etkazuvchi, bilimlaroni o'zida to'plovchi vosita vazifasini ham bajargan. SHu yuois biron bir dorivor moddaning qanday fazilatlariga ega ekanligini ham she'rga solganlar. Natijada she'riyat xalqning bilimlar to'plamiga aylangan.

"Saydana" asarini yozish uchun muallif faqat o'zi yoshligidan dunyoning turli mintaqalarida bevosita ko'rgan va yozib olgan dorivor moddalarni berish bilangina cheklanmaydi. Balki o'ziga bo'lgan barcha olimlarning yozib qoldirgan ilmiy merosini sinchiklab o'rganib, ulardan samarali foydalanadi. Bu modda haqidagi ularning fikrlari beriladi.

Asarda 29 bob va 1116 maqolada dorivor moddalarning nomi izohlanadi. Har bir bob harfga bag'ishlanadi. Agar alifbosidagi 28 harfga lom-alifni ham qo'shib alohida bob qilib beradi. Beruniy o'z asarida bu muammoning o'ta muhimligini sezgan holda 4500 dan ortiq arabcha, grekcha, suryoniy, forscha, xorazmiycha, sug'dcha, turkcha va boshqa tillardagi o'simlik, hayvon, minerallar va ulardan tayyorlanadigan dorivorlar nomlarini to'playdi va izohlaydi. Natijada o'z davridagi dorivorlar atamalarini mehyorlashtirishda juda katta xizmat ko'rsatadi. Ularni izohlash uchun 250 dan ortiq olimlar asarlaridan iqtibos keltiriladi. Ular orasida Gippokrat (eramizgacha 460-355yy), Arastu (eramizgacha 384-322yy), Ptolemey XI ning qizi Kleopatra (eramizgacha 69-30yy) singari grek; Arxigen (83-117yy), Galen (129-200yy) kabi Rim; CHoraka (eramizgacha I asr) kabi hind, Masardjavayh (661-750yy) mashhur tabib Iso Masihning otasi Al-Damashqiy, Iso Masih, Al-Kindiy singari arab olimlari nomlari alohida o'rin egallaydi. SHu nomlarning o'ziyoq Beruniyning "Saydana" asarini yozishga nechoqlik katta tayyorgarlik ko'rganligini, dunyoning menman degan allomalari asarlarini sinchiklab kuzatganligini qadimgi va zamondoshlar asarlarida uchragan doriqvor moddalar nomlarini hijjalab yiqqanligini ko'rsatadi. Olim bu bilangina cheklanib qolmay, ayrim dorivor vositalarda asar yozilayotgan chog'da bevosita bahzi shaxslar og'zidan daftarga tushirganligini bayon qiladi.

"Saydana" asari natijada dorivor moddalar lug'atiga aylanadi. Bu lug'atning xarakterli xususiyati shundaki, muallif foydalanuvchilarga oson bo'lishi uchun dorivor moddalar nomini arab alifbosi tartibida joylashtiradi. Bir harf bilan boshlanuvchi bir necha so'z bo'lsa, ular shu harf bobida ichki alfavit asosida beriladi. Natijada o'zigacha bo'lgan arab leksikograflarning lug'at tuzish tamoyillaridan ancha farq qiladigan o'ziga xos lug'atga aylanadi.

Bu lug'at bir vaqtning o'zida ham izohli, ham tarjima, ham etimologik, ham dialektologik lug'atning ilk namunalari sanaladi.

Xususan, lug'atning 13-maqolasi utrunj so'ziga bag'ishlanadi. Bu so'z Nishopurda va oddiy so'zlashuvda ko'proq turunj deyilishi, suryoniy atruka, forscha bodrang, lotincha tsitron detsilishi ta'kidlanadi. Kimki bodringni forscha xiyrom desa, bodringni utrunjga qiyoslab xiyyir-i badrang deb nomlanishini aytadi. Bodrangning etimologiyasi haqida to'xtalib, o'ziga bo'lgan tabiatshunos olim Hamza al-Isfaxoniy vadrang "bu rang o'chmasin" degan ma'noni berishini ko'rsatadi, deydi. Abu Hanifa o'trunjni arabcha mutk deb berganligini va bu so'z "Qur'on"da ham uchrashini ta'kidlaydi. Galen greklar tsintronni "midiya olmasi" sifatida, o'rikni esa "araman olmasi" sifatida tavsiflashini bayon qilganini ko'rsatadi. SHundan so'ng utrunj (tsintron)ning Misrda, Tobaristonda, Jurjonda qanday kattalikda va shaklda o'sishini, mazasi qanday bo'lishini bayon qiladmi va fikrini isbotlash, so'zni o'quvchi xotirasida yaxshi qoldirish uchun 8 ta shoirdan she'riy parchalar keltiradi.

YOki 17-maqolasi Idjas (g'aynoli)ga bag'ishlanadi. Bu so'z rumcha demaskina, siriya haxi akami yoki xuxi nisa, forscha girdi siyah deyilishi ko'rsatiladi. Rumcha nomi Damashq shahriga nisbatan olinganligini taxmin qiladi. Forscha idjasning olu nomi bilan ham yuritilishi va "qora" rangiga ishora qilib siyoh belgisi bilan qo'llanilishi va shu bilan sariq rangga ega bo'lgan "o'rik"ni bildiruvchi olu dan farqlanishi, o'rik uchun "sariq" rangini bildiruvchi zard (zardolu) belgisining qo'shilishini bayon qiladi. SHundan so'ng g'aynoli (sliva)ning qora, qizil va boqa turli ranglarga ega bo'lishi, mazasi haqida fikr yuritiladi. Uning tog'da o'sadigan sorti ham mavjudligi, bu sortni qaynatib, ezib nonga qo'shib pishirishni aytadi. Tobaristonda nishak, nisha alu deyilishi va ko'proq sariq rangda bo'lishi ta'kidlanadi. SHuningdek, nilk ham g'aynolilar turiga kirishi, uning ikki xil sorti mavjudligi, biri - sutday oq, ikkinchisi esa - ochiq qizil rangda bo'lishi, g'aynolining bu ikki turi Beruniyning ona tilida olucha, uning daraxtini esa baru nomi bilan yuritilishini aytadi.

Beruniy mahlum bir o'simlik yoki dorivor moddaning turli tillardagi nomlarini bir maqolada berar ekan, tillar o'rtasidagi fonetik o'ziga xoslik haqida ham mahlumot beradi. Xususan arab tilidagi saydana va saydanani so'zlari etimologiyasi haqida to'xtalib, bu ikki so'zning boshida (sod) (chim)ning arab tiliga moslashtirilishidir deydi. Fikrini dalillash uchun qator xuddi shunday misollar keltiradi:

(sin) (chin)dan;
(saymun) (chaymun)dan;
(balus) (baluch)dan;
(sarm) (charm)dan

kelib chiqqanligini aytadi. Ana shu asosda saydanani chandanani "sandal daraxti bilan savdo qiluvchi" so'zidan arab fonetikasiga moslashtirish orqali paydo bo'lganini ta'kidlaydi.

SHuningdek, hind tili bilan arab fonologik sistemasidagi katta tafovut borligini bayon qilib, hind so'zlarini arab tilida berishda bir qadar qiyinchilik borligini aytadi. Ana shu qiyinchilikni bartaraf qilish maqsadida arab alfavitiga bir qator o'zgarishlar kiritdi. Qisman forslardan foydalangan holda 4ta harfni () qo'shadi.

Bundan tashqari forslarda so'z boshi b va v fonemalarining o'zaro erkin almashinishi mumkinligiga diqqatni jalb etadi va ana shu almashinish asosida ayrim so'zlarning kelib chiqishi haqida fikr yuritadi. Maslan, 12-maqola (paragraf) Abhal (mojjevolpovie yagodi)ga bag'ishlanadi. U rumcha barutanun va barutun, suryoniycha barusa, forscha burs va vurs, zabolcha vurs gunda deb nomlanishini ta'kidlagan holda, fors tilida b-v fonemalarining talafuzi bir-biriga yaqin ekanligi, shuning uchun ko'pincha ular bir-biri bilan oson almashinishi aytadi.

Beruniy morfologik birlik bo'lgan morfemalar haqida, yahni so'zning ma'noli birliklari haqida ham fikr yuritadi va ularni o'zak hamda o'zak bo'lmagan (affiks) turlarga ajratadi. Xususan, lotin tilidagi otlar haqida gapirar ekan, rum tilida otlarning "sin" bahzan "nun"

harflari bilan tugallanilishi, bu ikki harf lotin grammatikasida o'zakka kirmasligi qo'shimcha harf ekanligini ta'kidlaydi.

YUqorida bayon qilingan fikrlarning o'ziyoq buyuk tabiatshunos olimning tilshunoslikka ham qanchalar dahldor ekanligidan guvohlik beradi.

Beruniy dunyo tillari, ularning farqli xususiyatlari, leksikografiya, etimologiya, grammatika masalalari bo'yicha o'zining ma'lum qarashlarini bayon qildi va bu bilan tilshunoslikning fan sifatida shakllanishi lingvistik tahlilning rivojiga ma'lum hissasini qo'shdi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. O'zbek tilshunosligi tarixi kursining o'rganilish sabablari nimada?
2. Uni o'rganishga bo'lgan ehtiyojni qanday belgilash mumkin?
3. Arablar istilosi davrida fan sohalari qay tarzda rivojlandi?
4. Tilshunoslik maktablari nima?
5. Arab tilshunosligi maktablari hususida nimalarni bilasiz?
6. Forobiyning faoliyati, lingvistik qarashlari xususida to'xtaling.
7. Forobiyning mantiq va grammatika haqidagi fikrlari borasida so'z yuriting.
8. Beruniyning ilmiy merosi qaysi fan tarmoqlarida qo'llanilmoqda?
9. Uning tilga va tilshunoslikka oid qarashlari nimada?
10. «Saydana» asarining ahamiyati qanday?

ADABIYOTLAR.

1. Abu Rayhon Beruniy. Izbrannoe proizvedeniya. TomIV. T. 1974g.
2. Bulgakov P.G. Jizn i trudi Beruni. T. 1972g.
3. Mirzaev S. Beruniy va saydala ilmi. Beruniy o'rta asrning buyuk olimi. T. 1950y.
4. SHaripov A. Velikiy mislitel Beruni. T. 1972g.
5. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. T. 1998y.
6. Alp-Farabi. Izbrannie taktiki. Almati 1994g.
7. Xayrullaev M. Abu Nasr alp-Farabi. M. 1982g.
8. Mets A. Musulmanskiy Renessans. M. 1973g.

TAYANCH ATAMA (IBORA) LAR

Fonetist fonolog, Lingvogeograf. SHuubitlar, Basra va Kufa grammatik maktablari, "Javohiru nahv fil lug'otit turk"

2-MA'RUZA. MAHMUD KOSHG'ARIYNING LINGVISTIK QARASHLARI QIYOSIY-TARIXIY

TILSHUNOSLIKNING OTASI

REJA:

1. Mahmud Koshg'ariyning lingvistik qarashlari.
2. Mahmud Koshg'ariy hayoti
3. Uzining lingvistik qarashlari asoslari xususida.
4. Mahmud Koshg'ariy - qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning asoschisi
5. Lingvogeografik qarashlari

Tilshunoslik tarixida Mahmud Koshg'ariy salmoqli o'rin egallaydi. U tilshunoslikning juda ko'p sohalari bo'yicha qalam tabratdi. Kiyosiy-tarixiy tilshunoslikning otasi, fonetist-fonolog, leksikolog, leksikograf, lingvogeograf, turkiy tillar sarf va na'x ilmining asoschisi sanaladi.

S.Mutallibov ta'kidlaganidek, Mahmud Koshg'ariy yaratgan "Devonu lug'otit turk" asari faqat o'sha davr uchungina katta voqea bo'lib qolmay, bugungi turkologiya fani uchun ham o'z qimmatini saqlab kelmoqda U turkologiya fanining haqli ravishda asoschisi hisoblanadi.

Afsuski, ana shunday buyuk tilshunosning ilmiy merosidan jahon ilmiy jamoatchiligi asrimiz boshlariga qadar bebahra bo'lib keldilar. Chunki bu davrgacha Mahmud Kog'ariyning hayoti va uning "Devon"i haqida ma'lumot yo'q edi.

Arab fani shuhratini yoyishga sababi bo'lgan bibliografik va biografik asarlarda ham Xoja Xalfa lug'atidan boshqa birortasida bu olim haqida ma'lumot berilmaydi.

Faqat 1914 yilda Turkiyaning Diyorbakir shahrida istiqomat qiluvchi Ali Amiriy tomonidan tasodif tufayli Mahmud Koshg'ariyning "Devon" i topilib, lingvistika tarixida mo'hjiza ro'y berdi. Chunki bu asar tilshunoslikning juda ko'p sohalari qamrab olgan qomusiy bir asar edi.

Asarning topilish tarixi haqida prof. H.Hasanov shunday yozadi:

"... beva xotin, pulga muhtoj bo'lib, kitobfurush do'koniga eski qo'l yozmani ko'rsatdi: "Marhum aytgan edilar, agar qiynalib qolsangina shu kitobni sotgin, lekin 30 liradan kam bo'lmasin".

Ammo kitobfurush bunchalik qimmatga olgisi kelmadi va "kitob do'konda tura tursin, xaridor chiqsa, pulini olarsiz", deb javob qildi. Kunlar o'tdi, xaridorlar keldi, birontasi ham shu "eski qog'ozlar"ni 30 lira olgisi kelmadi.

Nihoyat, diyorbakirlik kekxa kitob muxlislaridan Ali Amiriy (1857-1924) afandi do'konga kelib qoldi. (Ali Amiriy o'z shaxsiy kutubxonasida 15 mingtacha qo'lyozma va bosma kitoblarni to'plab, hammasini Istambuldagi shayx Fazlulloh madrasasiga hadya qilgan edi. 1918 yilda bu erga Valiuddin, Jorullo va boshqa kutubxonalar xam birlashtirildi. Bu yirik qo'lyozmalar xazinasi Fotih mahallasida bo'lganidan, ko'pincha Fotih kutubxonasi ham deyiladi, so'nggi vaqtlarda Millat kutubxonasi deyila boshlandi). Ali Amiriy bu kirimsiz qo'lyozmani bir-ikki varaqlab chiqdi-yu, ammo olishga puli yo'q edi. Ko'chadan o'tib ketayotgan bir do'stini to'xtatib, undan qarz oldi. Ko'lyozmani olib ketgach. Ali Amiriy bir necha kun, ertayu kech uni varaqlab, undan ko'zini uza olmas edi. "Kitob oldim, uyga keldim, emak-ichmakni unutdim. Bu kitobga xaqiqiy qiymat berilmak lozim bo'lsa, jahonning xazinalari kifoya qilmas". Axir, bu tamomila yangi bir asar - Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" degan ajoyib durdonasi bo'lib chiqdi".¹

Mahmud Koshg'ariyning hayoti juda oz ma'lumotga egamiz. Uning to'liq ismi Mahmud Ibn-ul Husayn Ibn-Muhammad-il-Koshg'ariydir. Mahmud Koshg'ariyning tug'ilgan

¹ Xacanov X. Maxmyd Koshgariy. Toshkent, 1963, 3-6et

yili aniq emas. Lekin "Devon" ning oxirida bu umrimni oxiriga etkazgani" ni quyidagi misrdan bayon qiladi: "Ekchandi bilagim, eg'udi tilagim, tugundi..."

"Devonu lug'otit turk" asari esa hijriy 469 yili yozilgan (melodiy 1076-1077). Hoshimiylar sulolasidan, abbosiylar avlodidan bo'lgan Abulqosim binni Muhammad Muqtadoga armug'on qilingan. Asarning yozilish tarixi lug'atda shunday bayon qilingan: "Nok yili turklarning o'z ikki yil nomlarining biridir. Bu kitobning yozilgan yili nok yili edi."²

Lug'at yozilganda muallifning keksayib qolganligini hisobga olsak u XI asr boshlarida tug'ilgan deb hisoblash mumkin.

Mahmud Koshg'ariy o'zining so'z boshidagi "a" ni "ha" qilib talaffuz qiluvchi qabilaga mansub ekanligini bayon qiladi. Bu ma'lumot uning qaysi qabiladan ekanligini aniq ko'rsatib bermasa ham, lekin bu qabilaning turkiy qabilalar ichida katta nufuzga ega ekanligidan guvohlik beradi. Chunki Mahmud Koshg'ariy ta'kidlagan fonetik xususiyat keyinchalik turkiy tillarda, xususan, o'zbek tilida shunchalik kengaydiki, so'z boshidagi "a" dangina emas, balki "o'", "u" unllaridan oldin ham "h" orttiriladigan bo'ldi. Masalan, avuch - havuch, o'l-xo'l, o'quz-xo'qo'z, ulkar-hulkaro va boshqalar. Demak, Mahmud Koshg'ariy mansub bo'lgan qabila xalqining shakllanishida ham uzviy bir qavm bo'lib xizmat qilgan.

Mahmud Koshg'ariyning qaerda, qachon o'qigani haqida ham aniq ma'lumot yo'q. "Devonu lug'otit turk" asaridek qomusiy bir asarni yaratgan buyuk zot, so'zsiz, o'z davrining etuk olimlaridan edi. Xususan, tilshunoslikka katta havas bilan qaragan olim edi. SHuning uchun ham u turkiy urug' va qabilalar yashagan barcha erlarni birma-bir kezib, ularning tillaridagi o'xshash va farqli jihatlarini aniqlaydi. Muallifning o'zi bu haqda shunday yozadi: "Men turklar, turkmanlar, o'ruklar, chegillar, yag'molar, qirgiz (qirg'iz) larning shaharlarini, qishloq va yaylovlarini ko'p yillar kezib chiqdim, lug'atlarini to'pladim, turli xil xususiyatlarini o'rganib, aniqlab chiqdim. Men bu ishlarni til bilmaganligim uchun emas, balki bu tillardagi xar bir kichik farqni ham aniqlash uchun qildim. Bulmasa men tilda ularning eng etuklaridan, eng katta mutaxassislaridan, xushfahmlaridan, eski qabilalardan, jang ishlarida usta nayzadorlaridan edim. Ularga shuncha diqqat qildimki, turklar, turkmalar, o'g'uzlar, chigillar, yag'molar va qirgiz qabilarining tillari butunlay dilimga jo bo'ldi. Ularni har tomonlama puxta bir asosida tartibga soldim".¹

Mahmud Koshg'ariy "Devonu lug'otit turk" asaridan tashqari, turkiy tillar sintaksisiga doir "Javohirun nahv fi lug'otit turk" ("Turkiy tillarning nahv (sintaksis) javohirlari") asarini ham yozganligi haqida ma'lumot beradi. Afsuski, bunday nodir asar bizgacha etib kelmagan yoki haligacha topilgani yo'q.

Mahmud Koshg'ariy o'sha davr anhanasiga ko'ra, barcha asarlarini, jumladan, "Devon"ni ham arab tilida yozdi.

"Devonu lug'otit turk" ning bizgacha birgina ko'lyozmasi etib kelgan. Ko'lyozma Istanbulda saqlanadi. Ko'lyozmani ko'chiruvchi kotib Muhammad binni Abu Bakr Damashqiy ma'lumotiga ko'ra, u Mahmud Koshg'ariyning o'z qo'lni bilan yozilgan nusxadan ko'chirilgandir.

Bu asar 1915-1917 yillarda uch tomlik kitob holida Istanbulda nashr etildi. Nemis sharqshunosi Brokkelpman tomonidan 1928 yilda nemis tiliga tarjima etilib, Leyptsigda bosib chiqarildi. Basim Atalay usmonli turk tiliga tarjima qilib, 1939 yilda Anqarada chop etdi. Mashhur sharqshunos olim Solih Mutallibov tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilinib, 1960-1963 yillarda Toshkentda nashr qilindi.

Mahmud Koshg'ariy lingvistik qarashlarining asoslari haqida

Mahmud Koshg'ariy lingvistik qarishlari "arab tilshunosligi" deb yuritiluvchi tilshunoslik maktabi kuchog'ida shakllandi. Bu maktab garchi dunyoga: arab tilshunoslik maktabi" nomi bilan mashhur bo'lsa ham, lekin arab madaniyati, jumladan, arab

² Махмуд Кошгаріу. Девону луготит турк. III том. Тошкент, 196 у. б.

¹ Махмуд Кошгаріу. Девону луготит турк. I том. Тошкент, 1960, 44-бет.

tilshunosligining rivojida xalifalik tarkibiga kirgan deyarli barcha xalqlar hissa qo'shgan. Islom ta'siri ostida bu davrida yaratilgan asarlarning hammasi arab tilida yozilganligi sababli ham, ular dunyoga arab madaniyati nomi bilan tanildi.

Eron adabiyoti tarixi mutaxassisi Braunning ta'kidlashicha, Abbosiylar davrida (749-846) 45 ta yirik fan arboblarning 30 tasi eronlik bo'lgan. SHuningdek, arab madaniyatining rivojida turkiy halqlarning ham xizmati kattadir.

SHunday qilib, "arab madaniyati", "arab tilshunosligi" deganda, faqat arablarning o'zlarining madaniyati, tilshunosligi emas, balki xalifalik tarkibida birlashgan barcha xalqlarning madaniyati, tilshunosligi tushuniladi.

Arab tilshunosligi amaliy ehtiyoj natijasida, "Kurhon" matnini to'g'ri talaffuz qilish ehtiyoji bilan, shuningdek, arablar bilan shuubitlar (eroniylar) o'rtasidagi arab tili yuzasidan muhobasasi jarayonida vujudga keldi.

"Kurhon" matnini to'g'ri talaffuz qilish ehtiyoji ikki jihatdan maydonga keldi. Birinchisi, "Kurhon" yaratilgan klassik arab tili bilan keyinchalik jonli arab so'zlashuv tili o'rtasida birmuncha o'zgarish ro'y berdi. Ikkinchidan, arab bo'lmagan kishilarning "Kurhon" ni o'qishlarida g'alizlik sezildi. Bu haqda shunday rivoyat qilinadi: "Abalhasvad xalifa Alidan grammatikaning boshlang'ich asoslarini o'rganadi. Keyinchalik undan Ollohning kalomi bo'lgan muqaddas kitobni yaxshiroq tushunishga va to'g'ri talaffuz qilishga yordam beradigan kitob yaratishni so'raydilar. Lekin u bunga dastlab rozilik bermaydi. Bir kuni "Kurhonning" "Anna-llaha bariun minal-musrikina va rasulu" surasining oxirgi so'zini "va rasilixi" o'qiganini eshitib qoladi. Bunday talaffuz sura ma'nosini butunlay o'zgartirib yuborganining guvohi bo'lib ("Ollox butga sig'inuvchilar bilan aloqa qilishni xohlamadi, uning rasuli ham" ma'nosini yuqoridagicha talaffuz qilinganda "Olloh butga sinuvchilar bilan va o'zining rasuli bilan aloqa qilishni xohlamadi" tarzida o'zgartirib yuboradi), arab tili grammatikasiga doir asar yozishga qasd qiladi".

Arablar bilan shuubitlar o'rtasidagi siyosiy kurashning ildizlari shundaki, Abbosiylar Eron feodallari yordami bilan hoqimiyat tepasiga keldi. SHuning uchun ham Bag'dod xalifaligida eroniylarning ta'siri juda kuchaydi. Bundan norozi bo'lgan arab zodogonlari o'zlarining nufuzini saqlab qolmoq uchun arab tilining boshqa tillardan ustun ekanligini, uning muqaddasligini ulug'ladilar. Arablarda "Rimliklarning donoligi - ongida, hindlarning donoligi - folbinligida, greklarning donoligi - qalbida, arablarninini esa tilida" degan naql tarqalganligi bejiz emas.

SHuubitlar esa, aksincha, boshqa tillarning ham imkoniyatlari, arab tilidan qolishmasligi, hatto bahzi o'rinlarda undan ustun kelishini isbotlashga urinar edilar. Ana shunday kurash negizida va o'z fikrlarini til materiallari asosida isbotlash asosida tilshunoslik rivoj topa bordi.

Arablarda Muhammad Rasul alloh Vassalamdan boshlaboq tilga ehtibor, uni o'rganishga dahvat kuchaydi. Xalifa Abdulmalik notiqlik sanhatiga ega bo'lmagan, arab tili go'zalligini namoyish eta olmagan kishi hokimiyatni boshqarish mumkin emasligini ta'kidlaydi. SHuning uchun ham o'g'li Validni ham bir necha marta klassik arab tilida to'g'ri gapira olmaganligi uchun koyiydi. SHunday qilib, jamiyatda va fanda katta nufuzga ega bo'lish uchun har bir shaxs o'z tilining boy imkoniyatlarini to'la egallashi va uni amalda qo'llay olishi shart qilib qo'yildi. SHu bois xalifa va arab davlatining barcha bo'g'inidagi rahbarlari zamondoshlari yaratgan filologiyaga doir asarlarni rag'batlantirib turdi.

Bularning hammasi arab tilshunoslik fanining shakllanishi va rivoji uchun qulay sharoit yaratdi. Tilshunoslik fan sifatida Basra va Kufa shaharlarida shakllandi.

Xalifalik taxtiga Abbosiylar kelganga qadar va ilm markazi Bag'dodga o'tgungacha Basra va Kufa grammatik maktablari o'rtasida keskin kurash ketdi va o'sha kurash zaminida tilshunoslik rivoj topdi.

Arab tilshunosligining ilk vakillari sifatida ko'pchilik adabiyotlarda Xalifa Ali va Abulasvad ad-Davla e'tirof etiladi. Abul-asvad (taxminan 688 yillarda Basrada vafot etgan) goh Xazrat Alining o'quvchisi, ilk arab grammatikasining muallifi, g'ox Hazrat Ali-yaratgan grammatikaning texnik ijrochisi sifatida naql qilinadi. Har holda, Hazrat Alining ham grammatikaga aloqador shaxs ekanligi ma'lum.

Basra maktabining ilk vakillari Isa as-Sagafiy (766 yili vafot etgan), Abu Amr ibn al-Ala (689 yili Makkada tugilib, Basrada ijod qilgan va 770 yilda Kufada vafot etgan) va YUnus ibn Habib (Ibn Habibning shogirdi, eronlik kul bo'lgan) lar hisoblanadi. Ularning asarlari saqlanib qomagan bo'lsa-da, lekin arab tilshunosligining keyingi bosqichi uchun puxta zamin hozirladilar.

Arab tilshunosligining bu uch bobokaloni faoliyati Basra maktabining eng ko'zga ko'ringan vakillaridan biri Xalil al-Farohidiy (taxminan 718 yilda tugilib, 791 yili Basrada vafot etgan) ijodida o'z yakunini topdi.

Halil al-Farohidiyning "Kitob ul-ayn" nomi bilan yuritiluvchi lug'ati saqlanib, qolgan. U arab tilshunosligining haqiqiy otasi sifatida ko'pchilik tomonidan e'tirof etiladi.

SHuningdek, ilk arab tilshunosligining eng qo'zga ko'ringan grammatikachilaridan biri Halilning shogirdi Sibaviyhi sanaladi. Uning "Al-Kitobu" asari saqlanib qolgan. "Al-Kitob" arab tili grammatikasining eng yaxshi namunasi sifatida keyingi avlodlar o'rtasida ham mashhur bo'ldi.

Halilning yana bir shogirdi al-Asman (740 yilda tug'ilgan, 828 yilda vafot etgan) arab dialektologiyasiga asos soldi.

Basra maktabining keyingi yirik vakili Muhammad ibn Dureyd o'zidan oldin o'tgan ustozlari anhanalarini davom ettirgan holda, jonli arab tilining so'z boyligini to'pladi. Kilichning 500 dan ortiq nomi, tuyaning 1000 dan ortiq nomi bor ekanligini ko'rsatdi. Lekin ularning ko'pi dialektal variantlar va individual badiiy epiteta edi".¹

Basra maktabidan birmuncha keyin Iroqning boshqa bir shahri Kufada grammatikaning ikkinchi maktabi paydo bo'ldi. Bu maktabning asoschisi al-Ruasi sanaladi, lekin uning hech qanday merosi saqlanmagan.

Kufa maktabidan etib kelgan eng qadimgi yodgorlik Al-Qissaiyning "Xalq tilidagi g'alizliklar haqida risola" asari sanaladi. U Kufada tug'ilgan, lekin qachon tug'ilganligi nomahlum. O'z tug'ilgan shahrida filologik mahlumotga ega bo'lgandan so'ng, yanada chuqurroq bilimga ega bo'lmoq uchun Basraga Halil xuzuriga boradi. Halil tavsiyasi bilan jonli arab tilini o'rganish uchun badaviylar ichiga yo'l oldi. SHunday qilib, u badaviy qabilalarining jonli tilini puxta o'zlashtirdi. Dastlab Basrada, so'ng Bag'dodda istiqomat qilib, davrining etuk olimlari bilan bir necha bor shaxsiy bahslarda ishtirok etdi. Ana shunday bahslardan biri Sibaviyhiy bilan o'tdi va bu bahs Al-Qissaiy foydasiga hal bo'ldi.

Kufa maktabining so'nggi vakillaridan biri Muhammad al-Anbariy qarama-qarshi ma'noli so'zlar haqida yirik kitob yaratdi.

XI asr boshlariga kelib, Basra va Kufa maktablari o'rtasidagi raqobat to'xtaydi va har ikki maktab yutuqlaridan barobar foydalanadigan yangi avlod dunyoga keldi. Arab filologiyasi markazi xalifalik poytaxti bo'lgan Bag'dodga ko'chdi. Bu erda xalifa saroyida har ikki maktabga mansub bo'lgan olimlar bir yoqadan bosh chiqarib filologiyani yangi cho'qqilarga olib chiqish uchun kurashdi.

YAngi yo'nalishning yirik vakillaridan Abdulla Ibn Kutayba (828 yili to'g'ilgan), fors Al-Dinovari (895 yili vafot etgan). Usmon ibn Jini (941 yili tug'ilgan), turk Ismoil al-Javhariy (taxminan 100 yili vafot etgan) larni sanash mumkin.

Bu olimlarning hammasi qomusiy bilimga ega bo'lishi bilan ajralib turadilar. Ayniqsa, Ismoil al-Javhariyning 40000 klassik arab tili so'zlarini o'z ichiga olgan "Sqxax" nomli lug'at katta shuhrat qozondi. Bu lug'at mavjud lug'atlardan tuzilishiga ko'ra farq qildi. Muallif

¹ Крымский А.Е. Семитские языки и народы. Ч.III. Изд.2-е. М., 1909-1912, с. 350

so'zlarni o'zak oxiridagi harflarga ko'ra alfavit tarzida joyladi. SHu vaqtga qadar lug'atchilikda so'zlar tarkibidagi tovushlarning fiziologik xususiyatiga ko'ra yoki tematik printsipta, borliqdagi narsalar qanday nomlanishiga ko'ra joylashtiriladi edi.

Javhariy lug'ati shuhrat topganligi uchun ham u "leksikologiya imomi" nomini oldi.

XI asr o'rtalariga kelib feodal kuchlar o'rtasidagi tinimsiz kurash natijasida xalifalik kuchsizlashdi va bir qancha mayda bo'laklarga bo'linib ketdi. Bu davrda arab tilidan boshqa tillarga ham ehtibor kuchaydi.

Mahmud Koshg'ariy "Devonu lug'otit turk" asarida buxorolik olimning tilidan Muhammad alayxi Vassalamning "turk tilini o'rganing, chunki ularning hukmronligi uzoq davom etadi" degan hadisi bor ekanligining keltirilishi ham shu davrda turkiy qavmlarning ham nufuzi ortib borayotganidan bir nishona edi.

Ana shunday tarixiy sharoitda Mahmud Koshg'ariy fan olamiga kirib keldi. Mahmud Koshg'ariy o'sha davridagi arab ilmiy markazi bo'lgan Bag'dodda tahlil olib, Halildan tortib Javhariyga bo'lgan olimlarning ilmiy merosi bilan chuqur tanishdi. Natijada ularning yaxshi jihatlari qalbiga joy qildi.

Tilshunoslik tarixida qiyosiy-tarixiy tilshunoslik XIX asrdan paydo, bo'ldi deyiladi va uning asoschilari sifatida Frants Bonn, Rasmus Rask va Yakov Grimmlar e'tirof etiladi. Buning sababi shundaki, g'arb olimlari Mahmud Koshg'ariyning "Devon"i bilan asrimizning birinchi choragiga qadar tanish bo'lmagan. Agar tanish bo'lganlarida edi, uning tilshunoslik oldidagi xizmatlari oldida tiz cho'kkan va qiyosiy-tarixiy tilshunoslik, lingvogeografiya singari tilshunoslik yo'nalishlarining otasi sifatida Mahmud Koshg'ariy e'tirof etgan bo'lardilar. Uning asari oldida tahzim bajo aylagan mashhur turkolog A.M.SHcherbak shunday yozadi: "Mahmud Koshg'ariyning "Devon"niga na materialning hajmi jihatidan, na muallifning filologik bilimi jihatidan bas keladigan biron asar yo'q. "Devon" ning lug'at deb atalish uning asl mazmuniga uncha mos kelmaydi. Bunda turkiy tillar grammatikasidan juda keng ma'lumotlar bor... Yana unda turkiy tillar leksikasi, fonetikasiga doir keng ma'lumotlar, qabilalarning joylanish xususiyatlari, geografik va boshqa xil ma'lumotlar mavjud".¹

Darhaqiqat, Mahmud Koshg'ariy turkiy qabilalarni birma-bir kezib, ularning tilidagi farqli xususiyatlarini aniqladi, til xususiyatlariga ko'ra turkiy tillarni guruxlarga tasniflash imkoniyatiga ega bo'ldi. Mahmud Koshg'ariyning o'zi bu haqda shunday deydi: "Puxta ko'llanma bo'lsin deb, har bir qabilaning o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra qiyosiy qoidalar tuzdim ... Bu masalaga qiziqqan mutaxassislariga bu asarni qo'llanma qildim".²

Mahmud Koshg'ariy o'z oddiga qo'ygan ulkan vazifani ahlo darajada bajardi. Barcha satqlar bo'yicha turkiy tillarni o'zaro qiyoslab, umumiy va farqli jihatlari ajrata oldi. Turkiy tillarni farqli belgilariga ko'ra dastlab ikki guruhga ajratdi: turklar (chigil, qoshg'ar, arg'u, barsag'on, uyg'ur), ug'uz va qipchoq qabilalari tillari.

Turklarning tillari doimo qiyosga asos rolini o'ynaydi va qiyosga asos bo'lgan lingvistik fakt o'g'uz va qipchoq qabilalari tillariga qiyosalanadi. Jumladan, fonetik jihatdan so'z boshidagi "y" o'g'ozlarda va qipchoqlarda "no'lp" yoki "j" bilan almashinuvchi aytiladi.

turklar	ular (yapni o'g'uz qipchoqlar)
---------	--------------------------------

yelkin "musofir"	elkin
------------------	-------

yinju "marvarid"	jinju
------------------	-------

yug'du "tuyaning o'zun juni" jug'du	
-------------------------------------	--

yilig'	ilig'
--------	-------

Turklardagi so'z boshida kelgan "m" ularda "b" bilan almashinish ko'rsatiladi:

turklar	ular
---------	------

men	ben
-----	-----

¹ Шербак А.М. Грамматический очерк языка тюркских текстов X-XIII вв. из Восточного Туркестана. М.-Л., 1961, стр. 29

² Махмуд Кошгарий . Девоу луотит турк. Тошкент, I том, 1960, 47-бет

mun "shurva" bun
 SHuningdek, o'g'uz tilining o'ziga xos xususiyati haqida gapirib, "t, k" kabi jarangsiz tovushlar o'g'uzlarda jaranglilashishi ta'kidlanadi. Masalan:

turk va boshqa qabila tillarida	o'g'uzlarda
teyay	devay
ot "teshik"	od

Aksincha. turk va boshqa qabila tillaridagi "d" o'g'uzlarda "t" ga aylantiriladi:

turklar	o'g'uzlar
bugda "xanjar"	bukta
yigda "jiyda"	yikta

Turkiy tillar o'rtasidagi bunday fonetik farqlanish keyinchalik Ovrupo tilshunoslari tomonidan ham ehtibor etildi va ular turkiy tillarni xuddi shunday farqli belgilariga ko'ra uch guruhga bo'ldilar: qarluq gruppasi, o'g'uz gruppasi va qipchoq gruppasi.¹ Bu tillarning fonetik jixatidan farqlanishiga Mahmud Koshg'ariy ko'rsatgan belgilar asos qilib olindi.

Mahmud Koshg'ariy o'g'uz va qipchoqlar ayrim so'z va ko'shimchalar tarkibidagi "ch" va "g'" undoshlarini tushirib qoldirishini va shu xususiyati bilan ham turklardan farq qilinishi bayon qiladi. Masalan:

turklar	o'g'uzlar va qipchoqlar
chumchuk	chumuq
tamg' aq	tamaq
barag'an "hadeb boraveradigan"	baran
urag'an "hadeb uraveradigan"	uran

Mahmud Koshg'ariy morfemik birliklarni ham turkiy tillar bo'yicha qiyoslaydi va ular o'rtasidagi farqli xususiyatlarni belgilaydi. Xususan, bo'ruq maylidagi fe'lda ko'plikning ifodalanishi haqida fikr yuritir yoqan, shunday yozadi: "Buyruk oxiriga -g'il, -qil, -gil qo'shish tinglovchi birlikda bo'lgandagina mumkin. Tinglovchi ikkita yoki ortiq bo'lsa, bu ko'shimchalarni qo'shib bo'lmaydi. Ikkitalik va ko'plik farqsiz bir xildir... Birlik uchun bar, ikkitalik uchun baringlar ikkigu, ko'plik uchun barinlar qamug' deytilar. Tinglovchi yoshi katta, hurmatli bo'lsa (yolg'iz bo'lsa ham), hurmat yuzasidan ko'plik shakli qo'llanadi: baring deyiladi. aslida buning ma'nosi barniglar demakdir.

O'g'uz va qipchoqlar birlikda bar, ko'plikda baring deytilar. Ular ko'plik qo'shimchasi -lar! -lar ni tushirib qoldiradilar. -lar o'rniga tinglovchi birligida -ngiz qo'llaydilar"¹

O'tgan zamonni bildiruvchi -di shaklining ham turkiy tillararo variantlanishini ko'rsatadi. CHunonchi, chigil, uyg'ur, yag'mo singari qabilalar tillarida o'tgan zamonni ifodalash uchun -di qo'shimchasi qo'shilishini ta'kidlaydi. O'g'uzlar va qipchoqlarning bahzilari - sovorinlar bu qo'shimchani oxiriga o'zakning kattiq yoki yumshoqligiga qarab "q" yoki "k" qo'shib ishlatilishi va bu qo'shimcha birlik va ko'plikda ham, turli shaxslarda ham bir xil qo'llanishi, demakki, shaxs va sonda mo'tadillashuvi bayon qilinadi. Masalan:

Man ya qurduk	Biz ya qurduk
San ya qurduk	Siz ya qurduk
Ul ya qurduk	U ya qurduk
YOki: Men kelduk	Biz kelduk
Sen kelduk	Siz kelduk
Ul kelduk	Ular kelduk

Kelasi zamon shakli ham turk va o'g'uzlarda farqli qo'llanilishi qo'rsatiladi: o'g'uzlarda shaxs qo'shimchasidagi birinchi tovush to'shib qoladi. Masalan

turk	o'g'uz
------	--------

¹ Баскаков Н.А. Введение в изучение тюркских языков. М.,

¹ Махмуд Кошгарий. Уша асар, II том, 50-51 бетлар

barirman bariran
kelirman keliran

CHigil, o'yg'ur, yag'mo, to'xsi kabi qabilalarda ismi zamon, ismi makon va qurol otlarini ifodalash uchun xizmat qiluvchi -g'u! -gu qo'shimchasi o'g'uz va qipchoq qabilarida -asi qo'shimchasi bilan almashinishi aytiladi. Masalan: Bu ya kurg'u ag'ur emas "Bu yoy quradigan vaqt emas" gapi o'g'uzlarda Bu ya ko'rasi ag'ur taguy deyiladi.

Turklardagi inkor bildiruvchi emas to'liqsiz fe'li o'g'uzlarda tug'ul bilan almashinishi ko'rsatiladi.

Xullas, Mahmud Koshg'ariy tilning barcha sathlari bo'yicha turkiy tillarni qiyslab, o'xshash va farqli jihatlarini belgilaydi va shu belgi asosida turkiy tillarni mahlum guruxlarga tasnif etadi. Bundan shu narsa ravshanki, u qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning poydevorini yaratgan yirik allomadir.

Lingvogeografik karashlari Ovrupada asrimiz beshlarida lingvogeografiya lingvistikaning alohida tarmog'i sifatida shakllandi. Aslida uning ildizlari Mahmud Koshg'ariyga borib taqaladi. U turkiy qabilalarning joylashishini maxsus kartaga tushirdi. Dunyoni shar shaklida tasvirlaydi va uni to'rt tomonga -al-sharq, al-g'arb, al-shimol, al-janub tomonlariga bo'ladi. Turklar asli yigirma qabiladan tashkil topganligini aytadi. Har bir kabilaning sanoqsiz urug'lari borligi bayon qilinadi. SHarqdan boshlab har bir qabilaning joylashishi birin-ketin ko'rsatiladi. Har qaysi qabilaning tilidagi farqli xususiyatlari o'rni bilan bayon qilinadi. Bu esa Mahmud Koshg'ariyning lingvogeografiyaning ham asoschisi ekanligini ko'rsatadi.

TAYANCH ATAMA (IBORA) LAR

Fonetist fonolog, Lingvogeograf. SHuubitlar, Basra va Kufa grammatik maktablari, "Javohiru nahv fil lug'otit turk"

NAZORAT SAVOLLARI

1. Mahmud Koshg'ariy qanday olim edi?
2. Uning tilshunoslikka qo'shgan hissasini qanday baholaysiz?
3. Olim hayoti haqida so'zlang.
4. Koshg'ariyning ijodi haqida nimalarni bilasiz?
5. Basra va Kufa maktablari vakillaridan kimlarni ko'rsatasiz?
6. Bu maktablarning xizmati nimada edi?
7. A.M.SHcherbak «Devoni lug'otit turk» asari haqida qanday fikr bildirgan?
8. M.Koshg'ariy «Devon»da turk va o'g'uz qabilalari tillarini qanday qiyoslaydi?
9. Nima uchun olim qiyosiy tarixiy tilshunoslikning otasi hisoblanadi?
10. Mahmud Koshg'ariyning lingvogeografik qarashlari haqida nimalarni bilasiz?

ADABIYOTLAR

1. Zvegentshev V.A. Istoriya arabskogo yazqkoznaniya. Kratkij ocherk. MGU, 1988
2. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'atit turk. I,II,III tomlar. Toshkent, 1960-1963
3. Xasanov X. Mahmud Koshg'ariy. Toshkent, 1963
4. Fozilov E. Mahmud Koshg'ariy va uning "Devon" i -o'zbek tili va adabiyoti, 1971, 5-son, 34-39 betlar
5. Nurmonov A., Mahmudov N. O'zbek tilshunosligi tarixi. Toshkent 2000.

3-MA'RUZA. MAHMUD KOSHG'ARIYNING FONETIK VA LEKSIK QARASHLARI

R E J A:

1. Fonetik qarashlari
2. Olimning fonetik hodisalar xususidagi fikrlari.
3. Mahmud Koshg'ariy so'z ma'nolari to'g'risida
4. Uning leksikografiya borasidagi xizmatlari.

Mahmud Koshg'ariy fonetika sohasida ham qimmatli fikrlar yuritadi. garchi u bu sohada maxsus asar yozmagan bo'lsa ham, lekin "Devonu lug'atit turk" asarida fonetika bo'yicha juda ko'p materiallar bor.

U, avvalo, hozirgi tilshunoslikda fonema atamasi bilan yuritiluvchi fonologik birlikni, tovush juda yaxshi farqlagan. SHuning uchun ham muallif eng kichik fonetik birlikning fonologik funksiyasiga - so'z tarkibida kelib, ma'no farqlash vazifasiga katta ehtibor beradi. Tovush tiplarini belgilashda tovushlarning ma'no farqlash vazifasini asosiy mezon qilib oladi. Ana shu mezon asosida turkiy tillarning fonemalar miqdorini aniqlaydi.

Fonemalarning yozuvda ifodalanish darajasi, fonema bilan harf munosabati, ularning o'rtasida doimo mutanosiblik bo'lavermasligi haqida fikr yuritadi. Jumladan, unini ifodalash uchun qo'llaniladigan, i harflar birikmasi "qalin-ingichkalik" belgisi bilan farq qiluvchi va so'z ma'nosini farqlash uchun xizmat etadigan bir necha fonemani ifodalashini ko'rsatadi. Masalan _____ co'zida qalinrov talaffuz qilinib, "devorda va taxtada bo'lgan teshik" ma'nosini; yanada ingichkaroq talaffuz etilib, "achchiqlik", "o't qopchasi" ma'nosini ifodalashi, demak, ular har qaysi ma'noda alohida-alohida leksema ekanligini, leksemalarni farqlash uchun esa fonema xizmat etayotganini ta'kidlaydi"¹

Turkiy fonemalar bilan arab yozuvidagi grafemalar o'rtasida katta nomutanosiblik mavjudligi, shuning uchun bu yozuv turkiy tillar fonetika (fonologik) sistemasini to'g'ri ifodalay olmasligini ko'rsatib beradi. Xususan, arab yozuvida shunday harflar borki, bu harflar faqat arab tiliga xos bo'lgan fonemalarni ifodalaydi. Mahmud Koshg'ariy bu haqda shunday yozadi: "Biror qabila tilida ham _____ yo'qdir. Itboq harflaridan bo'lmish _____ harflari ham turkiy tillarda yo'qdir. SHuningdek bo'g'iz tovushlaridan bo'lmish _____ harflari ham turkiy tillarda yo'qdir".²

Lekin turkiy tillarda shunday fonemalar borki, bular arab yozuvida maxsus harf bilan ifodalanmaydi. Ularning miqdorini Mahmud Koshg'ariy ettiga ekanligini ta'kidlaydi. "Bular qattiq talaffuz qilinadigan _____(p) harfi, arabcha _____ harfi, _____(z) bilan _____(sh) oralig'ida talaffuz etiladigan _____(j) harfi; arabcha _____(f) harfi, nuqtali _____(g') harfi; _____(q) bilan _____(k) harflari oralig'ida talaffuz etiladigan yumshoq _____(g); kofi g'unna bilan _____(g') oralig'ida hamda _____(q) bilan _____oraligida talaffuz etiladigan _____ harflaridir"

YOzuvdagi ana shu kamchilikni mavjud harflarga nuqtalar qo'yish orqali to'ldirishga harakat qildi. U shunday yozadi: "Turkiy tillar yozuvida qo'llaniluvchi harflar soni o'n sakkizta emas, ko'pdir. Bu sakkiz harf etishmaydi. Bulardan boshqa tilda bo'lgan tovushlarni berish uchun yana etti harf kerak. Lekin u harflar yo'q. U etti tovushni ana shu mavjud harflar ustiga maxsus belgi qo'yib yoziladi"¹

Maxmud Koshgariy fonemalarning nutq jarayonida turli hil variantlarga ega bo'lishi, har xil fonetik hodisalar haqida ham mahlumot beradi. Jumladan, ishboh (tovushlarni qattiq yoki qalin talaffuz qilish), imola (tovushlarni cho'zib talaffuz qilish), ishmom ()tovushlarni yumshoq yoki ingichka talaffuz qilish), g'unnaning ikki ko'rinishi (ng, ng') , xayshum

¹ Махмуд Кошгарий. Уша асар, I том, 78-79 б.

² Махмуд Кошгарий. Девону луготит турк. I том, 48-бет

¹ Махмуд Кошгарий. Уша асар, 21-бет

(nazalizatsiya), ikki undoshning qator kelishi (geminatsiya), tovush almashinishi (metateza), assimilyatsiya, dissimilyatsiya, tovush tushishi va tovush ortishi singari hodisalar haqida fikr yuritiladi".²

XIX asrda BOduxen de Kurtene korrespondentsiya deb ajratgan fonetik hodisa haqida ham Mahmud Koshg'ariy XI asrlardayoq ma'lumot bergan. U turkiy qabilalar o'rtasida turli xil fonetik moslik mavjudligini ta'kidlaydi: "_____ bilan boshlangan ot va fe'llarning bosh harfini o'g'uz va qipchoqlar "alif" ga yoki "jim" ga aylantiradilar. CHunonchi, turklar musofirni yelkin desalar, ular (o'g'uzlar) elkin deyдилar; turklar _____ desalar, ular _____ deyдилar. SHuningdek, turklar dur, marvaridni _____ desalar, o'g'uzlar _____ deyдилar".³ SHuningdek, turklar bilan o'g'uz va qipchoqlar o'rtasida m-b (men - ben, mun" shurva" -bun), t-d (te e "tuya" - de e) kabi fonetik moslik borligi ham ko'rsatiladi. Bu hodisa keyinchalik turkiy tillar o'rtasidagi differentsiatsiya uchun asosiy omillardan biri bo'lgan.

Mahmud Koshg'ariyning fonetika sohasida bunday chuqur ma'lumotga ega bo'lishining ma'lum sabablari bor. CHunki Mahmud Koshg'ariy tahlim olgan Bog'dod tilshunoslik maktabida fonetika, leksikologiya, leksikografiya masalalariga katta ehtibor berilgan edi. SHuning uchun ham Mahmud Koshg'ariy fonetik qarshlarini ham "arab tilshunosligi" fonida o'rganish to'g'riroq bo'ladi.

Arab tilshunosligi o'zining ilk taraqqiyot bosqichidan boshlaboq fonetika masalasiga jiddiy ehtibor berdi. CHunki so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatish bevosita fonetika bilan bog'liqdir.

Arab tilshunoslari nutq tovushlarining anatomik-fiologik tomoni haqida chuqur ma'lumot berdilar, nutq apparati batafsil sharqlandi.

Tovush va harf munosabati masalalida arablar antik olimlardan ancha o'zib ketdilar. Jumladan, Sibaviyhiy tovush va uning grafik ifodasini aniq farqlaydi. Tovush bilan xarf o'rtasida mavjud bo'lgani nomosliklar haqida to'xtaladi.

Lekin arab tilshunosligining ilk davrida unli va undoshlar farqlanmadan. To'g'rirog'i, unli undosh bilan birgalikda bitta hodisa sifatida tushunildi. Xususan, Halil al-Farohidiy undoshni unidan ajratish mumkin bo'lmagan ish deb izohladi. Agar biz undoshni alohida talaffuz qilmoqni istasak, ham baribir unlini qo'shib bo'g'in holda talaffuz qilamiz deydi.

Keyinchalik unli va undosh bir-biridan farqlana boshladi. Bunda Ibn Jiniy asarlarida kuzatishg mumkin. Undoshning unlisizx xolati alohida termin bilan, sukun atamasi bilan nomlandi. Bunga xaraka atamasi bilan nomlanuvchi tushuncha zidlandi. Bu atama ostida undoshning unli bilan birgalikdagi talaffuzi tushunildi.

Arab tilshunoslari nutq jarayonidagi fonetik o'zgarishlar haqida chuqur ma'lumot berdilar. Unlilarning kuchsizlanishi va uning sabablari izohlendi. Sibaviyhiy har qanday fonetik o'zgarishlar zamirida talaffuz qulayligiga intilish yotganini ta'kidlaydi.

Fonetik o'zgarishlarning sababi qulaylik va kam kuch sarflashga intilish ekanligini arablardan ming yillar keyin Ovropa tilshunosligida A.Martine va E.D.Polivanovlar bayon qildilar.¹

Halil va Sibavayixiy asarlaridayoq nutq tovushlari va ularning tasnifi haqida batafsil ma'lumot beriladi. Halil tovushlarni fiziologik nuqtai nazardan, paydo bo'lish o'rniga ko'ra tasnif etadi. Bu belgiga ko'ra tovushlar 8 guruhga bo'linadi.

Uning o'quvchisi Sibavayhiy tomonidan esa tovushlarning mukammalroq akustik tomoniga ham ehtiborni jalb etdi. Sibavayxiy fonetik sistemasidan quyidagi xarakterli jihatlarning ajratilishi mumkin:

² Махмуд Кошгаріу, Уша асар, 50-бет

³ Махмуд Кошгаріу. Уша асар, 67 бет

¹ Мартіне А. ПРінципы экономіі в фонетіческіх ізмененіях. М., 1980;

Поліванову Е.Д. Где лежат прічыны языковых ізмененіу? - "Статті по общему языкознанію" китобі М., 1968

1) tovushlar ovozlilar va ovozsizlarga (shovqinlilarga) ajratiladi; 2) kuchlanishga ega bulgan va kuchlanishga ega bo'lmagan tovushlar farqlanadi; 3) paydo bo'lish o'rniga ko'ra undoshlarning 16 ta o'rni belgilanadi; 4) ochiq va yopiq tovushlarning mavjudligi ko'rsatiladi; 5) unlilar og'izning ochilish darajasiga ko'ra turlarga ajratiladi.

Bundan ko'rinib turibdiki, Sibavayhiy arab tilshunosligida mukammal fonetik nazariy yaratdi.

Arab tilshunosligining shakllanishi va rivojiga hind va grek tilshunosligining ta'siri katta bo'lgan. Fonetika ko'proq hind tilshunosligi ta'sirida rivojlangan. Chunki fonetika masalasi hindlar greklarga nisbatan yuqoriroq o'rinni egallagan.

Ilk arab grammatikalari savdo-sotiqning juda qulay joyida joylashganligi uchun bu shaharlarga fors va sureniylarning qadimiy madaniyatining kirib kelishiga qulay imkoniyat yaratildi. Fors madaniyatiga ko'proq hindlarning, sureniylar madaniyatiga esa greklarning ta'siri ko'proq bo'lgani hisobga olinsa, har ikki madaniyat orqali hind va grek madaniyati arablar hayotiga kirib keldi.¹

Hindlar fonetika sohasida tovush bilan tovushlar umumlashmasini (fonemani) farqlagani, imkoniyat tarzidagi tovush birligi uchun alohida atama (spxota) xam qo'llagani ko'pchilikka mahlum.²

garchi arab tilshunosligi hind va grek tilshunosligi ta'sirida rivojlangan bo'lsa ham, lekin arab tilshunoslari ularning nazariyalarini arab tiliga oddiy qo'llovchilargana bo'lib qolmadilar, balki hind va grek tilshunoslari g'oyalaridan oziqlangan holda arab tili materiallari asosida o'zlarining mahsus nazariyalarini yaratdilar. Bu ayniqsa fonetikada namoyon bo'ldi.

Mahmud Koshg'ariyning tilshunoslikdagi qarashlari fonetika bo'yicha ana shunday yutuqqa erishgan arab tilshunosligi zaminida shakllandi. U fonetika sohasida olgan bilimlari asosida turkiy tillarning o'ziga xos fonetik xususiyatlarini ochib berishga muvaffaq bo'ldi.

Mashhur sharqshunos P.K.Juze, Mahmud Koshg'ariy haqida shunday yozadi: "... Dadilo aytish mumkinki, yaqindagina (XIX asr oxirlarida) Rossiyada va SHarqda o'rganilgan turkiy tillar fonetikasi va etimologiyasining asosiy qonunlari XI asrdayoq Mahmud tomonidan aniqlangan va o'rganilgan edi. Mahmudning bu tekshirishlari shu qadar keng va chukurki, hatto bunday asar XIX asrda yozilganda xam, unga shon-sharaf bo'lardi. Mahmud Koshg'ariyning "Devon"i singari asar fan olamida keyingi asrlarda ham yaratilgan emas. Uning asari bamisoli "Turkiy qlmusdir".

Mahmud Koshg'ariy turkiy tilshunoslikning leksikologiya va leksikografiyasiga ham asos soldi. U leksikologiyaning obhekti bo'lgan ma'noning ko'chishi, ma'noning torayishi va kengayishi, zid ma'noni so'zlar (antonim), shakldosh so'zlar (leksik omonimiya), ma'nodosh so'zlar (leksik sinonimiya) bir so'zni zid ma'noda qo'llash kabi masalalar bo'yicha mahlumot beradi. U leksik omonimlarni shakliy o'xshash bo'lgan bir necha so'z sifatida e'tirof etadi. SHuning uchun ham bunday so'zlarni alohida alohida maqola tarzida beradi va izohlaydi. Masalan: _____ - o't, o'simlik: o't undi _____ - hayvonlar eydigan har turli o't, xashak: atqa o't bergil; _____ - dori, davo: o't ichdim, "dori ichdim"; _____ - og'u, zahar: Beg anar o't berdi "Bek unga zaxar berdi".

Omonimik paradimga tarkibiga kirgan keyingi ikki leksema ayni paytda ma'noni zidlag asosida biridan ikkinchisi kelib chiqqanligini ta'kidlaydi.¹

SHuningdek. ma'noning torayishi, haqida fikr yuritar ekan, saban so'zi ilgari qo'sh va omochlarning hammasi ma'nosida qo'llangan bo'lsa, so'ng faqat omochga xoslanganini ko'rsatadi.

¹ Звегинцев В.А. История арабского языкознания. Краткий очерк. МГУ 1988, стр 24.

² Березин В.А. История лингвистических учений. М.1975, с.7 Кондрашов Н.А. История лингвистических учений. М.1979, с.9

¹ Махмуд Кошгарий. Уша асар, уша том, 20-бет

Metoniyami yo'li bilan ma'no qo'chilishiga ham misollar keltiradi: O'g'uzlar qit - go'ngni og'il dkeyishlarini, bosh so'zi o'rnida soch so'zini ishlatishlarini ta'kidlaydi.

So'zlarning o'xshashlik asosida ma'no ko'chishi haqida ham misollar beriladi. Masalan: tug'mok so'zi ilgari faqat odamga nisbatan ishlatilgan bo'lsa, keyinchalik hayvonlarga nisbatan ham qo'llana boshlanganligini aytadi.²

Mahmud Koshg'ariy leksikografiya sohasida dunyo tilshunosligida yuksak cho'qqiga ko'tarildi. U IX asrdayoq bebaho turkiy so'zlarning izohli lug'atini tuzdi. Mahmud Koshg'ariy qadar arab tilshunosligida leksikografiya sohasida katta muvaffakiyatlarga erishildi. Xususan, Halil al-Farohidiy ibn Ahmadning "Kitobul-ayn", Sibavayhiyning "Al kitob" singari asarlari arab olamida shuhrat qozondi. Mahmud Koshg'ariy ularning lug'at tuzish printsiplariga tanqidiy nuqtai nazardan yondashib, o'ziga xos yo'ldan bordi. Bu hakda muallifning o'zi shunday yozadi: "Men bu kitobni maxsus alifbe tartibida hiqmatli so'zlar, sajhlar, maqollar, qo'shiqlar, rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim. Bu ish ustida so'zlarni o'z joyiga qo'yish, kerakli so'zlarni osonlik bilan topish uchun bir necha yillar mashaqqat tartdim. Nihoyat, kerakli so'zlarni o'z joyida ko'zlaydigan, kiyinchiliksiz topa oladigan bir holga keltirdim. Kitobni sakkiz asosiy bo'limda chekladim ... Har bir bo'limni otlar (ismlar) va fe'llar tarzida ikki qismga ajratib berdim. Otlarni oldin, fe'llarni esa otlardan keyin o'z sirasiga qarab, boblarga ajratib, o'z o'rnida oldinma-kecin ko'rsatdim. Tushunilishi oson bo'lishi uchun asarda arabcha istilohlar (termin) qo'lladim. Kitobni tuzish oldidan Hali ibn Ahmadning "Kitobul-ayn" asarida tutgan tartibni qo'llash; istehmoldan chiqqan so'zlarni ham bera borish fikri menda tug'ilgan edi. Bu tartib arab tili bilan ikki uloqcha otdek teng poyga qilib o'zib borayotgan turk tilini to'liqroq yoritish jihatdan ham yaxshi edi. Lekin men o'quvchilarning foydalanish masalasiga asoslandim. Men istehmoldagi so'zlarnigina berdim, istehmoldan chiqqanlarini tashladim. Men tutgan tartib to'g'riroqdir.

Darhaqiqat, Mahmud Koshg'ariy to'g'ri bashorat qilgan edi. U tutgan yo'l, lug'at tuzish printsiipi butun dunyo leksikograflarini hanuzgacha o'ziga rom qilib kelmoqda.

Solih Mutallibovning ta'kidlashicha, so'z shakllarini shunchalik uzoq muddatga etkazishda Maxmud Koshg'ariy tutgan alohida tartibning ahamiyati kattadir. Bu tartib asosida qo'lyozma zararlangan, o'zgargan taqdirda ham qaysi so'z qanday boshlanishi, o'rtada, oxirida qay harf borligi va boshqalarni aniqlash osondir. Ehtimol, Mahmud Koshg'ariyning bu tartibni qo'llashdan kuzatgan maqsadi ham shudir".¹

YUqorida ta'kidlanganidek, Maxmud Koshg'ariygacha arab leksikografiyasida so'zlar tarkibidagi tovushlarning fiziologik xususiyatiga ko'ra yoki tematik guruhlarga ko'ra joylashtirish anhana bo'ldi.

Jonli arab tilining leksik boyligini ko'rsatish uchun bir so'zning turli xil dialektal variantlarini hamda uslubiy variantlarini ham alohida leksema sifatida ko'rsatgan va sinomlar paradigmasida joylashtirgan. Masalan, Muhammad ibn Dureydning lug'atida kilich so'zining 500, sher so'zining 500, tuya so'zining 100 dan ortiq sinonimlari berilgan.

Faqat kelib chiqishi turkiy bo'lgan Ismoil al-Javhariygina bu anhanaga chek qo'ydi. U klassik arab tilining 40000 so'zini o'z ichiga olgan "Sixax" lug'atini tuzdi. Bu lug'at Al-Halilning "Kitob-ul-ayn" lug'atidan ham, Muhammal Ibn Dureydning lubatidan ham so'zlarning joylashtirish va so'z tanlash mezonlari jihatidan ham bir muncha afzalligi ko'rinadi. So'zlar tovushlarning fiziologik xususiyatiga qarab emas, balki alfavit asosida, so'z o'zaklarining oxirgi harfi asosida joylashtiriladi. Bu usul arab tilshunosligida uning shogirdlari tomonidan davom ettirilibgina qolmasdan, balki Ovrupo leksikografiyasiga ham ta'sir etdi. Faqat Ovrupo tilshunosligida so'zlarning teskari tomoni - so'z boshidagi xarflarga qarab joylashtirish odat tusiga kirdi.

² Уша асар, уша бет

¹ муталлибов С. Махмуд Кашгарий. Суз боши 28 бет

Javhariyning leksikografiya sohasidagi xizmati juda katta bo'lishidan kathy nazar, o'zi yashagan davrida u Al-Halil darajasida qadr-qimmat topolmadi. "Sixax" olimlarning turli baxslariga sababchi bo'ldi. SHu boisdan bo'lsa kerak. Mahmud Koshg'ariy al-Javhariy asarini tilga olmaydi, balki al-Xalilning "Kitob-ul-ayn" asariga to'xtalib, o'z asarini undan boshqacha mezon asosida tuzganini ta'kidlaydi.

Al-Javhariy leksikografiya sohasida yangi sahifa ochsa, ham, lekin uning lug'ati klassik arab tilining izohli lug'ati edi. Unda keltirilgan ko'p so'zlar istehmoldan chiqqan, jonli tilda qo'llanilmas edi. Mahmud Koshg'ariy esa turk(iy) tilning tarjima va ayni paytda, izohli lug'atini tuzib, bu tilning amaldagi, jonli so'zlashuvdagi lug'aviy imkoniyatlarini namoyish etmoqni o'z oldiga vazifa qilib qo'ydi. SHuning uchun ham Mahmud Koshg'ariyning lug'ati so'zlarni joylashtirish tamoyili jihatidan ham va lug'at materiali tomonidan ham tamoman yangi va mavjud arab tili lug'atlariga nisbatan bir necha barobar yuqori turuvchi lug'at edi.

Mahmud Koshg'ariy turkiy tilning amaldagi leksik imkoniyatlarini ko'rsatmoq uchun turk qavmlari ichida birma-bir yurib, ularning tillaridagi umumiy va o'ziga xos tomonlarni aniqlashga harakat kildi. Bu xaqda yozadi: "Men turklar, tsurkmanlar, o'g'uzlar, chigillar, yag'molar, kirgizlarning shaharlarini, qishloq va shaxarlarini ko'p yillar kezib chiqdim, lug'atlarini tupladim, turli xil so'z xususiyatlarini o'rganib, aniqlab chiqdim. Men bu ishlarni til bilmaganligi uchun emas, balki bu tillardagi har bir kichik farqlarni ham aniqlash uchun qildim."¹

Maxmud Koshg'ariyning turkiy urug'-qabilalar ichida yurib, ularning til xususiyatlarini o'rganishi ham bejiz emas edi. SHu davrda arab tilshunoslari o'rtasida klassik arab tilidan tashqari, jonli arab tilini yahni badaviylarning jonli so'zlashuv tilini o'rganish, tilshunosning mahoratini esa uning jonli so'zlashuv tilini qanchalik bilganligi bilan belgilash odat tusiga kirgan edi. SHuning uchun ham Halil al-Farohidiy o'z o'quvchilari Sibavayhiyni ham, alqissaini ham badaviylar ichiga yuboradi (har ikkisi ham forslardan bo'lgan). So'ngra har ikki olimning jonli so'zlashuv bo'yicha katta bahsi bo'lganligi ma'lum.

NAZORAT SAVOLLARI

1. M.Koshg'ariyning fonetika sohasidagi xizmatlari nimada ?
2. Turkiy fonemalar bilan arab yozuvidagi grafemalar o'rtasida qanday nomutanosiblik bor?
3. Nima uchun olim fonetika sohasida chuqur ma'lumotga ega bo'lgan?
4. Arab tilshunosligining shakllanishida hind va grek tilshunosligi qanday ta'sir etdi?
5. M.Koshg'ariyning «Devon» ini - «Turkiy qomus» deb baholagan olimni ayting?
6. Leksikologiya sohasidagi xizmatlari nimada?
7. So'z ma'nolarining torayishi va kengayishi bo'yicha qanday ma'lumotlar beriladi?
8. So'z ma'nolarining ko'chish usullari haqida qanday fikr yuritiladi?
9. M.Koshg'ariyning leksikografiya sohasidagi buyuk xizmatlarini qanday izohlash mumkin.
10. So'zlarni joylashtirish va lug'at materiali jihatidan «Devon» qanday o'ziga xosliklarga ega bo'ldi?

TAYANCH ATAMA (IBORA)LAR

Itboq harflari, Ishbot, Imola, Ishmom, Xayshum, Sukun, Xarakat

ADABIYOTLAR

1. Nurmonov A., Mahmudov N. O'zbek tilshunosligi tarixi. Toshkent, 2000
2. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'atit turk. I,II,III tomlar. Toshkent 1960-1963
3. Zvegentssev V.A. Istoriya arabskogo yazqkoznaniya. Kratkiy ocherk MGU, 1988
4. Fozilov E. Mahmud Koshg'ariy va uning "Devon"i. - O'zbek tili va adabiyoti, 1971, 5 -son

¹ Maxmud Koshg'ariy. Уша асар. 44-бет

4-MA'RUZA. MAXMUD KOSHG'ARIYNING GRAMMATIKAGAOID QARASHLARI

R E J A:

1. So'z yasalishi yuzasidan qarashlari.
2. Morfologik qarashlari.
3. Mahmud Koshg'ariy asarlarida fe'l talqini

4. Mo'htadillashuv (neytralizatsiya) hodisasi.

Mahmud Koshg'ariy hozirgi ytilshunoslikda alohida bo'lim sanaluvchi "So'z yasalishi" haqida ham o'zining kimmatli fikrlarini bildiradi.

Turkiy tillarda so'z yasalishining eng mahsuldor usuli affiksaiyya ekanligi ko'pchilikka mahlum. Maxmud Koshg'ariy shuning uchun ham so'z yasalishi haqida gap ketganda, asosan, affikslar qo'shib so'z yasashga to'xtaladi. U so'zlarni yasalgan-yasalmaganlik belgisiga ko'ra ikki turga - tub va yasama so'zlarga ajratadi. Xususan, u otlarning yasalishi haqida fikr yuritib, shunday yozadi: "Otlar ikki turlidir: yasama ot va tub ot. Fe'llardan yasalgan otlar fe'l oxiriga o'n ikki harfdan birini qo'shish bilan yasaladi.

Kilich, o'q qabi otlar tub otlardir. Bu xil otlar boshqa so'zlardan kelib chiqmagan. YAsama otlar boshqa so'zlardan kelib chiqadi. Bularning bahzilari turmushda qo'llanib, eshutilib yurilgan bo'lsa, bahzilari aniq emas, qiyosiy asosdadir".¹

Maxmud Koshg'ariy hozirgi tilshunoslikda qo'llanilayotgan uch komponenti so'z yasalishi tuzilishi hakida mahlumot beradi. U so'z yasashga asos, yasovchi vosita va yasalma haqida fikr yuritadi. Jumladan, otlarning yasalishi haqida mahlumot berar ekan, fe'ldan (yasashga asos) o'n ikki harf (yasovchi vosita) vositasida ot (yasalma) hosil bo'lishini ta'kidlaydi. Ot yasovchi ko'shimcha atamasi o'rniga xarf atamasini qo'llaydi. Fe'ldan ot yasovchi qo'shimchalar sifatida -a (-ga, -ma): bilga "bilimdon, aqlli" (bildi so'zidan),¹ uva "taom" (uvdi "maydaladi" so'zidan), kesma kokil" (kesdi fe'lidan; ko'zni berkitmaslik uchun sochni kesiladigan joyi ham kesma deyilishi ta'kidlanadi): -t (-ubb-ib): kachut "qochuvchi" (qochdi fe'lidan); -ch: qo'mach "non" (qo'mdi fe'lidan); sevinch (sevli fe'lidan); -sh (-ish) bilish "tanish" (bildi fe'lidan), urush, to'kush "jang" (urli, tukildi fe'llaridan); -g' (-ig', -g'u). Bu qo'shimchaning uch xil ma'noli affiks ekanligi ta'kidlanadi. Birinchi ma'nosi arig' "sof, toza" (arindi, "tozalandi" fe'lidan); kuruk (kuridi fe'lidan); ikkinchi ma'nosi urinni bildiradi: yay lag' "saylg'ox", kishlog'. (Bu so'zlar yay va kish otlari oxiriga -g' ko'shimchasi ko'shib yasalgan, deyiladi. Aslida -lok o'rin-joy oti yasovchi qo'shimcha sifatida shakllanib bo'lgan).

Uchinchi ma'nosi fe'llarga -u harfi bilan birgalikda qo'shib -g'u xolida qo'rol oti hosil qilishini ko'rsatadi: bichg'u "narsalarni kesuvchi asbob" (bichdi fe'lidan yasalgan).

-k (-g'ak): targ'ak "taroq" (taradi fe'lidan), o'rgaq "o'roq" (o'rdi fe'lidan);

-k (-ik, -uk): kesak "biror narsaning bo'lagi" (kesdi fe'lidan), eshuk "yopikchiq" (eshudi "yopdi, o'radi" fe'lidan);

-g : tirig (tirildi fe'lidan);

-l (oq va kora ranglarining alamashinuvidan hosil bo'lgan) targ'il "chavkar" (tarildi fe'lidan);

-n: akin "sel" (akdi fe'lidan yasalgan) va boshkalar.

YUkoridagi ko'shimchalarning so'z yasashda faol ekanligi haqida gapirib, shunday yozadi: "Bu qoidalar falak kutb yulduzi atrofida aylanish koidasi kabi har kanday so'zga tatbik etiladigan umumiy qoidalardir".²

¹ Махму Кошгаріу. Уша асар, 50-бет

¹ Махмул Кошгаріу феъл лексемані лувавіу бірлік сифатіда утран замон шакліда бераді.

² Махмул Кошгаріу. Уша асар. 55-бет

Mahmud Koshg'ariy so'z yasashning affiksatsiya usulidan tashqari, boshqa usullar borligi haqida ham ma'lumot beradi. Ana shunday usullardan biri enantiosemiyaga misollar beradi. Masalan, o't "dori": o't ichtim "dori ichdim", o't "zaxar": beg anga o't berdi "bek unga zahar berdi".

SHunday qilib, Mahmud Koshg'ariy XI asrdagi turkiy tillardagi so'z yasalihi haqida ma'lum darajada ma'lumot beradi.

Mahmud Koshg'ariy arab tilshunosligi anhanalari asosida turkiy tillarda ham uchta so'z turkumini ajratadi: otlar (ismlar), fe'llar va yordamchilar (harflar). Bu so'z turkumlari ichida ayniqsa fe'llar chuqur taxlil etiladi. Fe'llarning zamon, nisbat, shaxs kategoriyalari haqida ma'lumot beradi.

Fe'llar uch zamonga - o'tgan, hozirgi va kelasi zamonalarga bo'linadi. "Fe'lining o'tgan zamon shakli hamma fe'llarda - di ko'shib yasaladi, hech qaerda o'zgarmaydi" - deyiladi.¹

Kizirg'i shundaki, Mahmud Koshg'ariy affikslarning turli fonetik variantlari va bu variantlarning paydo bo'lishidagi morfonologik o'zgarishlarning sabablari, haqida ham fikr yuritadi. Xususan, o'tgan zamon shakli - di haqida to'xtalib, shunday yozadi: "O'tgan zamon fe'l yasovchi - di p,t,ch,k kabi turta qattiq xafrlar (tovushlar) bilan qo'shilganda "d" "t" ga almashadi. CHunonchi, tapti "tepd", tutti "oldi", kachti "qochdi", cho'tki "cho'kdi" kabi. O'zidan so'nggi "d" ni "t" ga almashtirishda "q" ham "k" ga o'xshaydi. CHunonchi Ol manga baqti kabi. Bu "d" ni "t" ga almashtirish, a harflarning mahrajlari qattiq bo'lgani uchundir. Bularning asli "d" dir. YUqoridagi harflarga qo'shilganda "t" ravishda talaffuz qilish yaxshiroqdir".²

Kelasi zamon fe'li barcha fe'l turlaridan - r qo'shimchasi qo'shish orqali hosil qilinishi ko'rsatiladi. Masalan, turur (tur fe'lidan, kelir (kel fe'lidan), kulur (kul fehdidan. SHuningdek, -g'ay, -qay, -kay, -gay affikslari ham kelasi zamon ifodalashini ta'kidlaydi: kurg'ay, sag'kay, kelgay.

Hozirgi zamon fe'lining shakllari haqida esa nima uchundir fikr yuritilmaydi.

Asarda masdarlar, masdar shakllarining singarmonistik variantlari haqida izchil ma'lumot beriladi. Mahmud Koshg'ariy yozadi: "Masdarlar hamma fe'llarda bir xildir. Uzagida "q", "g'" harflari bo'lgan yoki talaffuzda to'liq aytiladigan so'zlarda _____ (maq) qo'shib yasaladi. O'zagida "k" harfi bo'lgan yoki yumshoq talaffuz qilinadigan so'zlarda _____ (-mak) qo'shib yasaladi"³ Masalan, kur kurmok, sog'mak, barmak, turmak, kelmak, olmak (ochdi fe'lidan).

Masdarlarning yana biri "sof fe'l shakliga ishlovchi shaxs ma'nosini anglatuvchi qo'shimcha qo'shish bilan yasalihi va bu xil masdarlarning otlar turkumidagi so'zlar kabi ot o'rnida qo'llanishi" aytiladi. Bular fe'l o'zagiga qalin so'zlarda "ki, -g'i, yumshoq tovushli so'zlarda - ki, -gi qo'shimchalari bilan yasalmish ta'kidlanadi. Masalan, Ol barig' bordi "U bora borguncha biror narsaga to'xtamay to'g'ri bordi"; So'gal tqnqg'i artak "Kasalning nafas olishi yomon, og'ir"; Aning yarmak terigi ko'r "Uning pul to'plashini ko'r"; Taz keligi bo'rkchiga "Kalning yugurishi do'ppifurushgacha"⁴. YAna -duk, -duk; dug'-dug shakllari haqida ham to'xtaladi. Lekin ularni bir affiks emas, balki o'tgan zamon (-di) shakli va masdar (-q, -k, -g', -g) shakllari sifatida, demak, ikki grammatik shakl sifatida kuyidagicha talqin qiladi: "Keligi masdalarining asli keldidir. Bu so'zning ma'nosi o'zgartirilib, masdar yasovchi _____ (-k) qo'shilgandir. SHu mazmunli so'zlarla "g'" o'rnida "q" qo'llanmaydi. Faqat "g'" qo'shilishi mumkin bo'lmagan joylardagina "q" qo'llanadi. Bu "q" o'tgan zamon fe'l qo'shimchasi bo'lgan -d bilan -i orasiga kiradi va muzomasdarga aylanadi. Aning barduki, barmaduki bir gapidagi barduk, barmaduk so'zlari bardi fe'lidan yasalgan bo'lishli, bo'lishsiz masdarlardir.

¹ Махмуд Кошгарий. Уша асар. II том 55-бет

² Махмуд Кошгарий. Уша асар 41-42 бет

³ Махмуд Кошгарий. Уша асар, 45-46 бетлар

⁴ Махмуд Кошгарий. Уша асар. уша том, 48-бет

SHuningdek, Mening turmadukim, turdukim bir iborasidagi turduk, turmaduk so'zlari ham turdi fe'lidan yasalgan bo'lishli va bo'lishsiz masadardir. Bu misollarda - g' qo'llanishiga o'rin yo'q. CHunki turduki o'rinda turduq'i deyish mumkin emas".¹

Mahmud Koshg'ariy fe'lining mayllari haqida ham batafsil ma'lumot beradi. Uning ta'kidlashicha, fe'l o'zaklari buyruq shaklida bo'ladi: bar. kel, kabi. SHuningdek, ko'p turkiy qabilarda buyruqni ifodalash uchun fe'l o'zaklariga -g'il, -qil, -gil, -kil affikslerini qo'shib ishlatilgishi haqida fikr yuritadi: barg'il, turg'il, kelgil kabi.

istak mayli -sa affiksi yordamida hosil bo'lishini ko'rsatish bilan birga, "ish harakatni bajarish sharafiga bajaruvchi muvaffak ekanini, unga erishayotganini ifodalaydigan - kalir, -g'alir, -galir,

-kalir affiksleri mavjudligini ko'rsatadi: Men barg'adirman "men borish sharafiga egaman", Ul evga kirgalir "U uyga kirish sharafiga ega, kirishi yaqin qolgandir", Ul yarmak tergalir "U pul to'plashga erishgan, moyil bo'lgandir"²

Fe'llardagi sonning ifodalanishini arab tiliga qiyslagan holda, turkiy tillarning o'ziga xos xususiyatini, bu tillarda ikkitalik va ko'plik farqlanmasligi, son birdaniga ikki qarama-qarshi guruxga: birlik va ko'plik shakllariga zidlanishi ta'kidlanadi. Muzakkar (muj.r), muannas (jen.r) ham farqlanmasligi ko'rsatiladi. Birlik nol shakl orqali (fe'l o'zaklari birlikni bildiradi), ko'plikesa -ing), -i (nglar, -i(ngiz) kabi shakllar orqali ifodalanadi. Masalan, bar-baringlar, - i (ng) shakli faqat ko'plikni bildirmasdan, ham hurmat ma'nosini ifodalash mumkinligi ko'rsatiladi. "Tinglovchi yoshi katta, hurmatli bo'lsa, xurmat yuzasidan baring deyiladi".³

Birlik-ko'plikni ifodalashdagi qabilalar o'rtasidagi farqlar ham bayn qilinadi. "O'g'uz va qipchoqlar birlikda bar, ko'plikda baring deyidilar. Ular ko'plik qo'shimchasi -larni tushirib qoldiradilar - lar o'rniga tinglovchi birlashida - i(ngiz) qo'llaydilar. Xurmat uchun bir kishiga ham -z orttiradilar, ular tilida bir kishiga nisbatan ham ko'plik ustiga ko'plik qo'llanadi", - deyiladi. Ko'rinib turibdiki, bu o'rinda affiksial pleonazm haqida ham fikr yuritiladi.

Muayyan ma'no asosida bir paradigmaga mansub bo'lgan birliklar zidlanuvini mo'htadillashuvi (neytralizatsiyasi) haqida ham ma'lumot beriladi. Bu hakda yozadi: "Turklar hurmatli kishilarga nisbatan, garchi u yolg'iz bo'lsa ham, bardingiz deyidilar. Xolbuki, - i (ngiz) aslida ko'plikni bildiruvchi qo'shimchadir. O'g'uzlar buni faqat ko'plikda qo'llaydilar. (Ularda) bardingiz "xammangiz bardingiz" demakdir. Bu erda o'g'uzlar talaffuzi qoidaga muvofiq bo'lsa ham, turklarikida fashat, katta-kichikni farq qilish kabi go'zallik bordir."¹

SHuningdek, o'g'uzlar va qipchoqlarning bahzilari - suvoriplar o'tgan zamonning - di shakli o'rniga - duk, -duk shakllarini qo'llashi va bu shakllar birlik-ko'plikda farqlanmasligi haqida ma'lumot beriladi: Men ya qurduq

Biz ya qurduq kabi.

Bundan tashqari, bu shakllar shaxslar bo'yicha ham farqlanmasligi ko'rsatiladi: Men ya qurduq

Sen ya qurduq

Ul ya qurduq kabi.²

mahmud Koshg'ariy fe'llarda bo'lishli-bo'lishsizlikning ifodalanishi, bo'lishsizlik barcha qabilarda fe'l o'zaklariga - ma affiksini qo'shish orqali hosil bo'lishini aytadi. SHuningdek, gapning inkor shaklini ifodalamoq uchun uning kesimi fe'l kesim emas, balki ot kesim bo'lganda chigil, yag'mo, tuxsi kabilalari ermas; o'g'uz, qipchoq qabilalari tagul

¹ Махмуд Кошгаріу. ушу асар, 48-бет

² Махмуд Кошгаріу. ушу асар, 70-бет

³ Махмуд Кошгаріу. ушу асар, 51-бет

¹ Махмуд Кошгаріу. Уша асар, 53-бет

² Махмуд Кошгаріу. Уша асар, 65-бет

elementlaridan foydalanishlari ta'kidlanadi: Bu kurasi og'ur ermas - Bu ya kurasi og'ur tagul "Bu ey kuradigan vaqt emas"; Bu turg'u yer ermas -Bu turasi yer tagul "Bu turadigan er emas"³

Bundan tashqari, fe'l nisbatlari, nisbat shakllari hakida ham ma'lumot beriladi.

Ko'rinib turibdiki, "Devonu lug'atit turk" asari X-XI asr turkiy tillar morfologiyasi hakida to'la tasavvur beruvchi qomusiy asardir.

Mahmud Koshg'ariy sintaksisga bag'ishlab "Javoxiruv nahv fil lug'atit turk" asarini yozganligi haqida ma'lumotlar bor.

TAYANCH ATAMA (IBORA) LAR:

Kesma, Enantiosemiya, Masdar shakllari., Qalin so'zlar, YUmshoq so'zlar, Muzakkar, muannas

NAZORAT SAVOLLARI

1. So'z yasalishi haqida olimning qanday fikrlari mavjud?
 2. M.Koshg'ariy so'zlarni qaysi turkumlarga ajratadi?
 3. Asarda masdarlar haqida qanday ma'lumot beriladi?
 4. Olim fe'l mayllari xususida qay tarzda fikr yuritadi?
 5. Sonning ifodalanishi borasida qabilalar o'rtasidagi farqlar qanday bayon etiladi?
 6. Affiksal pleonazm haqida qanday ma'lumotlar uchraydi?
 7. Asarda fe'l zamonlari, fe'l nisbatlari haqida nimalar berilgan?
 8. Olim fe'l o'zaklarini qanday belgilaydi?
 9. «Devon» asari qaysi davr haqida ma'lumot beradi?
- M.Koshg'ariy sintaksis sohasida qanday faoliyat ko'rsatgan?

ADABIYOTLAR

1. Zvegentsseva V.A. Istoriya arabskogo yazqkoznaniya. Kratkij ocherk MGU, 1983
2. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'atit turk. I-III tomlar. Toshkent, 1960-1963
3. Xasanov X. Mahmud Koshg'ariy. Toshkent 1963
4. Fozilov E. SHarqning mashhur filologlari. Toshkent, 1971
5. Nurmonov A., Mahmudov N. O'zbek tilshunosligi tarixi. Toshkent, 2000

5-MA'RUZA. MAHMUD ZAMAHSHARIY VA IBN SINONING LINGVISTIK QARASHLARI

R E J A:

1. Ibn SINOning lingvistikaga oid asarlari.
2. Olimning fonetikaga doir qarashlari.
3. Zamahshariyning hayoti va ijodi.
4. Uning lingvistik faoliyati. "Muqaddimat-ul adab" asari

Ibn Sino qomusiy bilim egasi. U, eng avvalo, dunyoga tengi yo'q, tabib sifatida tanildi. Ibn Sinoning "Qonun fi-t-tib" kitobi asrimiz boshlariga qadar Ovruponing eng nufuzli universitetlarida asosiy qo'llanma sifatida o'qitilib kelindi.

Tibbiyotda shuhrat qozongan buyuk hakim boshqa fan sohalarida ham katta meros qoldirdi. O'rta asrlar fanining rivojiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk filosof fanning turli sohalarida qalam tebratib ulkan muvaffakiyatlarga erishgan qomusiy olim sifatida faqat SHarqadagina emas, balki G'arbda ham ma'lum va mashhur bo'ldi. Uning ilmdagi buyuk xizmatlariga mahliyo bo'lgan Mikelanjelo: "Boshqa olimlarni mahkullab xaq bo'lgandan ko'ra, Galen va Ibn Sinolar orqasidan ergashib xato qilgan yaxshiroqdir", - degan edi. Ular orasida lingvistikaga doir. "Asbobi xudut al xuruf" asari shu kunga qadar tilshunoslar diqqatini o'ziga rom qilib keladi. Ibn Sinoning bu asari bizgacha bir necha qo'lyozmalar orqali etib kelgan.

³ Махмуд Кошгарий. Уша асар, 67-71-бет

Ulardan eng eskisi xijriy 569 (milodiy 1173) yilla, so'nggisi esa xijriy 1182 (milodiy 1768) yillarda ko'chirilgan.

Ibn Sino hayoti va ijodi bilan shug'ullangan Abu Ubayda Juzjoniyning ta'kidlashicha, mazkur asar hijriy 415 (milodiy 1024) yilda Tehronda yozilgan.

Hozirgacha yuqoridagi risolaning uch nashri mavjud:

1. Qoxiga nashri. Muhibiddin al-Hatib tomonidan ikki qo'lyozma nusxasi asosida - Britaniya muzeyi (1182/1768 y.) va Teymur (Misr) kitob omboridagi qo'lyozmalar asosida nashr etilgan. Lekin bu nashr ilmiy apparati nuqtai nazarida ancha past, shu bilan birgalikda ko'p noaniqliklarga yo'l qo'yilgan qo'lyozmalarga tayanganligi uchun ilmiy jamoatchilik o'rtasida keng ommalashmadi.

2. Qoxira nashridan 40 yildan ortiqroq muddatdan so'ng 1954 yildak Tehronda professor Parviz Natel Xanzariy tomonidan ikkinchi nashri ehlon qilindi. Bu nashr ehtiborli qo'lyozmalarga asoslanganligi va ilmiy apparatning yuksakligi bilan birinchidan ajralib turadi.

3. Tiflis nashri (1968). Bu nashr gruzin filologi V.G.Ahveldiani tomonidan tayyorlangan bo'lib, unda matnning ruscha tarjimai va bu asarning ilmiy talqini ham beriladi.¹

Biz Ibn Sinoningsh lingvistik qarashlariga baho berishda, asosan, uchinchi nashrga tayanamiz.

Garchi bu asar arab tili fonetikasiga bag'ishlangan bo'lsa, ham lekin ko'p o'rinlarda, ayniqsa V bobida fors, turk va boshqa tillar materiallari ham jalb qilinadi. SHuning uchun ham Ibn Sinoning mazkur asari Sibavayxiy, Zamaxshariy singari o'zigacha bo'lgan filologlarning asarlaridan farqli ravishda umumiy fonetika ravishda umumiy fonetika masalalarini yoritishga bag'ishlanganligi bilan ajralib turadi.

"Asbob" asari arab tilshunosligi anhanasidan yana shu bilan farqlanadiki, unda fonetik o'zgarishlar masalasi qo'rilmaydi. Tovushlarning fiziologik va akustik xususiyatlari o'rganiladi. SHuning uchun bu fonetika sof sinxron fonetika hisoblanadi.

Asarning arab tilshunosligidagi boshqa asarlardan yana bir farqli jihati shundaki, unda artikulyatsiya tomonidan yaqin bo'lgan va akustik belgisiga ko'ra farqlanuvchi undoshlar o'zaro zidlangan holda o'zaro o'xshash va farqli belgilari ochiladi. Masalan, k-g, q-g' kabi. Bu shuni ko'rsatadiki N.S. Trubetskoydan bir necha asrlar oldin Markaziy Osiyo filologlari tomonidan korrelyativ undoshlar ajratilgan va undosh fonemalarni belgilashda asosiy tamoyil sifatida foydalanilgan.

Ibn Sino asarida yana bevosita kuzatishda turli o'zgarishlar bilan talaffuz qilinuvchi variant bilan bu variantlarning abstrakt bosqichida umumlashmasi (invariant) farqlanadi. Xususan, r-r, l-l tovushlari bir umuiylikning ikki xil ko'rinishi ekanligini bayon qiladi.¹

Ibn Sinoning "Asbob" asari kirish va olti bobdan iborat. Asarning kirish qismida uning yozilish sabablari, anhanaga ko'ra kimning sharafiga yozilganligi bayon qilinadi. Asar Abu Mansur Muxammad Ibn Ali ibn Umarga bag'ishlangan. muallif shu qismda risolani quyidagi olti bobga ajratganini bayon qiladi:

1. Tovushning paydo bo'lish sabablari haqida.
2. Nutq tovushlarining paydo bo'lish sabablari haqida.
3. Bo'g'iz va tilning anotomiyasi haqida.
4. ayrim arab tovushlarining paydo bo'lishidagi o'ziga xos xususiyatlari haqida.
5. Bu tovushlarga o'xshash nutq tovushlari haqida.
6. Bu tovushlarning nutqiy bo'lmagan xarakatlarda eshitilishi haqida.

Risolaning birinchi bobida, umuman, tovushning paydo bo'lishi haqida fikr yuritiladi. Muallifning bu masaladagi bayon qilgan fikri bugunga qadar ham deyarli o'zgarmagan holda takrorlanib kelmoqda. Uning ta'kidlashicha, har qanday tovush havoning to'liqsimon tebranishi natijasida paydo bo'ladi. Havoning tebranishida esa bir jismning ikkinchi jism bilan

¹ Капанг. Ахвледiani В.Г. Фонетический трактат Авиценны. Тбилиси, 1966

¹ Капанг.

to'qnashuvi (qar') yoki bir jismning ikkinchi jismdan uzilishi (qal') muhim rol o'ynaydi. Har ikki holda xam havoning to'liqsimon tebranishi ro'y beradi. Ikki jismning to'knashuvi jarayonida to'qnashuvchi jismlar havoni qisib muayyan kuch va tezlik bilan xarakat yo'anlishi tomon texroq fazoni bushatishga majbur kiladi. Bir jismning ikkinchi jismdan uzilishi natijasida ham uzilayotgan jismlar qisilgan havoni muayyan kuch va tezlik bilan fazoni bo'shatishga majbur qiladi.

Xar ikki holda ham uzoqlashayotgan havo shakl va to'liqinni hosil qilishi lozim bo'ladi. To'qnashuv natijasida hosil bo'lgan to'liqin uzilish natijasida hosil bo'lgan to'liqindan kuchliroq tarqaladi. Qo'rinadiki, tabiatdagi tovushlarning qanday paydo bo'lishini birinchidardan bo'lib ilmiy asoslab beradi.

Muallif fizikaviy tovushlar bilan nutq tovushlarini bir-biridan farqlaydi va har ikkisi uchun alohida - alohida atama qo'llaydi. Birinchi "savt", ikkinchisi esa "xarf" atamasi orqali nomlanadi.

Uning fikricha, savt va xarf paydo bo'lishiga ko'ra o'zaro umumiy va shu bilan birga, o'ziga xos belgilarga ega. Umumiyligi shundaki, har ikkisi jismning qisilishi yoki ochilishi natijasida havoning tebranishi tufayli hosil bo'ladi. O'ziga xos tomoni shundaki, xarf nutq organlari tomonidan talaffuz qilinadi. Asarda ta'kidlanishicha, xarf - bu balandlik va ton bo'yicha o'xshash tovushlarning eshutilish bo'yicha bir-biridan farqlanuvchi turidir.

Ibn Sinoning nutq tovushlarini hosil qiluvchi uch jihatni ko'rsatib o'tadi:

1. Qo'krak qafasida paydo bo'ladigan diafragma va ko'krak miuskullari orqali xarakatga keladigan xavo to'liqini.

2. Havo to'liqining nutq organlarining turli nuqtasida to'siqqa uchrashi.

3. Tovushga turlicha tembr ottenkasi beradigan va turli akustik belgi (masalan, dinai "akssado", gunna "nazallik") hosil qiladigan rezonator. Ibn Sino ko'rsatgan yuqoridagi uch jihat bugunga qadar fonetikaga bag'ishlangan asarlarda takrorlanib kelmokda.

Muallif nutq tovushlarini tasniflar ekan, unli va undosh tovushlarni bir-biridan farqlaydi: Unlilar uchun musannita, undoshlar uchun samita atamalarini qo'llaydi. U arab tilida yigirma sakkizta undosh, uchta unli fenomenlarni ajratadi.

Risolada undoshlarning turli xil farqlovchi belgilari asosida tasnifini beradi va atroflicha sharhlaydi. Lekin unlilar haqida qisqacha ma'lumot beriladi xolos. Buning boisi, bizningcha, shuki asarda muallif arab tili materiallariga asoslanadi. Arab tilida esa har bir ma'noli birlik asosida undoshlar yotadi. SHuning uchun asosiy ehtibor undoshlarga beriladi.

Bu o'rinda shuni alohida ta'kidlash kerakki, arab tilshunosligida Ibn Sinoga qadar unlilar alohida fonologik birlik sifatida qaralmasdan, undoshlarning tarkibiy qismi sifatida o'rganilgan. Fonemalarni undosh va unlilarga ajratish Ibn Sinoning jahon tilshunosligi rivojidadagi katta xizmati, deg' baolamoq lozim.

Undoshlar paydo bo'lish usuli, o'rni akustik xossasi hamda cho'ziqliq, sifat va miqdor belgilariga ko'ra tasnif etiladi.

Paydo bo'lish usuliga ko'ra undoshlar portlovchi va sirg'aluvchilarga bo'linadi. Portlovchilar "bi habs tamm" to'liq to'siqni yorib o'tish orqali hosil bo'ladi. So'rg'aluvchilar "bi habs gair tamm" esa muallif fikricha, o'pkadan chiqayotgan havoning to'liq bo'lmagan to'siqdan sirg'alib o'tish orqali paydo bo'ladi. Arab tilidagi quyidagi 12 ta undosh portlovchi sanaladi: q, k,g,d,d,t,t,b,m,n, l; quyidagi 16 ta undosh sirg'aluvchilarga kiritildi: h, ' , h, h, g , s,s,z,t, d, z, t, u, i, r.

Akustik belgisiga ko'ra undoshlarni jarangli (meghura) va jarangsiz (mahmusa) larga bo'ladi. Lekin bu belgiga ko'ra undoshlarga izchil xarakteristika bermaydi.

Ibn Sino undoshlarni paydo bo'lish o'rniga ko'ra batafsil sharhlaydi. CHunki arab tilshunosligi anhanasiga ko'ra, undoshlarning tasnifida artikulyatsiya o'rnini (mahraj) etakchi belgi sifatida qaralgan. Deyarli barcha arab tilshunoslari undoshlarning 16 ta paydo bo'lish o'rnini ajratadilar. Lekin Ibn Sino o'ziga xos yo'ldan boradi. U har bir undoshning o'ziga

alohida tavsif beradi. Undoshlar tavsifi bo'g'iz undoshlaridan boshlanib, lab undoshlari bilan tugaydi.

Undoshlar cho'ziqlik belgisiga ko'ra, sodda undoshlar (mufrada) va murakkab undoshlar (murakkaba) ga bo'linadi.

O'pkadan chiqayotgan havo to'siqni birdaniga yorib o'tishidan hosil bo'lgan undosh sodda undosh hisoblanadi; to'liq bo'lmagan tshsiqdan qisilib o'tishi natijasida paydo bo'lgan undosh esa murakkab undosh sanaladi. SHunday qilib, sirg'aluvchi undoshlar murakkab undoshlarga to'g'ri keladi.

SHuni ta'kidlash joizki, Ibn Sino undoshlarning artikulyatsiyasiga txtalar ekan, nazallashishga ham alohida ahamiyat beradi. Nazallikni ifodalash uchun gunna atamasini qo'llaydi. m va n undoshlari talaffuz qilishda bir qism havo bugun orqali o'tishini va bunday undoshlar nazal (gunna) undoshlar ekanligini ta'kidlaydi.

Ibn Sino o'z risolasida nutq organlaridan bo'g'iz va til haqida batafsil ma'lumot beradi.

Bo'g'iz (hangara) uch tobaydan (gudruf) iborat ekanligi ko'rsatiladi: 1) qalqonsimon (dd-daragt, at-tursi); 2) nomsiz (' adim al-ism, al-ladi la smi ladu); 3) cho'michsimon (at-targahali, at-targahari).

Asarda bo'g'ianing kuyidagi xarakterlari ko'rsatiladi:

1. Bo'g'ianing torayishi. Nomsiz tog'ay qalqonsimon tog'ayga yaqinlashib, unga qisilishi natijasida bo'g'izning torayishi ro'y beradi.

2. Bo'g'izning kengayishi. Nomsiz tog'ay qalqonsimon tog'aydan uzilib, uzoqlashishi natijasida yuzaga chiqadi.

3. Bo'g'izning epilishi. CHo'michsimon tog'ayning qalqonsimon tog'ay ustiga yopilishi natijasida ro'y beradi.

4. Bo'g'izning ochilishi. CHo'michsimon tog'ayning qalqonsimon tog'aydan uzilish natijasida hosil bo'ladi.

YUqoridagi xarakterlar bevosita bo'g'iz mushklari (muskullari) ishtirokida amalga oshadi. Bo'g'uz mushklari esa ikki guruhga bo'linadi: 1) bo'g'izning o'z mushklari; 2) bo'g'izning tashqi mushklari. Muallifning qo'rsatishicha, bo'g'iz harakatida 22 ta mushak ishtirok etadi. Ulardan 6 tasi bo'g'izning ochilishida; 4 tasi yopilishida; 6 tasi torayishida; 6 tasi kengayishida qatnashadi.

Ibn Sino tilning (lisan) nutq organi sifatidagi tuzilishiga ham atroflicha ma'lumot beradi. U tilni quyidagi qismlarga bo'ladi:

1. asl al-lisan - til asosi, tipning orqali qismi.

2. garm al -lisan - tilning tanasi. U bevosita chuqur til orqa bilan tutashadi.

Til tanasining o'zi quyidagi qismlardan tashqil topadi:

1. til orqa;

2. til o'rta;

3. til uchi;

4. til usti;

5. til yoni.

Muallif tilning harakatida sakkiz mushak ishtirok etishini bayon qiladi.

Ko'rinadiki, Ibn Sino nutq tovushlarida ishtirok etuvchi nutq organlari haqida keng ma'lumot berishida uning odam anatomiyasidan katta tajribaga ega bo'lganligi ko'l kelgan.

Xullas, Ibn Sinoning dunyoning beqiyos tabibi, hassos shoir, ulkan musiqashunos, yirik faylasuf, fiziolog olim bo'lishi bilan birga, arab, fors, turk, lotin, sug'd tillarining bilimdoni, ajoyib tilshunos ekanini ham e'tirof etishimiz mumkin.

Uning umumiy fonetikaga doir bildirgan fikrlari ham o'z kuchini yo'qotgani yo'q. Dunyo tilshunosligida fonetika va fonologiyaning rivoji uchun ulkan hissa ko'shgan tengi olim sifatida Ibn Sinoni kanchalar ardoklasak arziydi.

Xayoti va ijodi. Arab tilshunosligining rivojida arablardan tashqari boshqa xalklar olimlarining hissasi katta ekanligi yuqorida bayon qilindi. Ana shunday olimlardan yana biri xorazmlik Mahmud Zamahshariydir.

Xorazm jahon fani va madaniyatiga bir qancha allomalarni etkazib berdi. Muhammad Muso al-Xorazmiy, Ibn Sino, Abu Rayhon al-Beruniy kabi olimlarning nomi dunyoga mashhurdir. Ana shular orasida filologiya sohasida katta mavkega ega bo'lgan Mahmud Zamahshariyning alohida o'rni bor.

U xijriy 467 yil rajab oyining yigirma ettinchi kuni (melodiy 1045 yilning 19 martida) Xorazmiyning Zamaxshar kishlogida tavallud topgan. SHunga kura Zamaxshariy taxallusini olgan.

Az -Zamaxshariyning otasi o'z davrining ilmi kishilaridan bulib, Kurhoni karimni yoddan bilgan. Masjidda imomlik kilgan. Onasi xam savodli. okila, fozila ayollardan bulgan.

Az-Zamaxshariy dastlab otasidan savod chikaradi. Sung Xorazmdagi madrasada taxsil kuradi. Uz bilimni yanada chukurlashtirish niyatida Buxoroga keladi. CHunki Buxoro Somoniylar davridan boshlab ilm-fan markaziga aylangan, ilm-fanning dunyoga dong taratgan vakillari yigilgan edi. U Buxoroda ukishni tugatgach, bir necha yil Xorazmshoxlar xizmatida buladi. SHu vaktida Xorazmshoxlar davlati Saljuklar saltanatiga buysunar edi. Saljukiylar xukmdori Malikshox va uning vaziri Nizom ul-mulk ilm-fan va madaniyatga katta ehtibor bilan karadilar. Ayniksa, Nizom ul-mulk fan-madaniyat xomiysi sifatida dunyoga tanildi. Bir kancha shaxarlarda sunhiy masxabi buyicha sharitni organadigan madrasalar kurdirdi. Bu madrasalar Nizomiya nomi bilan yuritildi. Xorazmda etarli obru-ehitbor topmagan Zamaxshariy Nizom ul-mulk xuzuriga yul oladi. Lekin Zamaxshariy muhjaziliy mazxabiga mansub belganligidan, bu erda xam uz kadrini topmadi. SHundan sung Muxammad ibn Anushtagin asos solgan xorazmshoxlar saltanati vujudga kelgunga kadar (xijriy 490-521 yillar) Bogdod, Xamadon, Makka singari dunyoning turli shaxarlarida yurib, ularning olimu fuzalolari bilan tanildi, suxbatlar kurdi.

Muxammad ibn Anushtagin taxt tepasiga kelgach, Zamaxshariy uz vataniga kaytdi va Anushtagin marxamatidan baxramand buldi.

Anushtagin vafotidan sung (xijriy 521 yil) uning ugli Otsiz (xijriy 521-551 yillar xukmronlik kilgan) xam Zamaxshariyga katta xurmat-ehitbor bilan karagan. SHunga karamay u yana Makkaga talpinadi. Makkada amir Ibn Vaxxos uni yana izzat-ikrom bilan kutib oladi. Ibn Vaxxosning yordamida ilxomlangan az-Zamaxshariy uzining Kurhoni karimning tafsiriga bagishlangan "Al-Kashshof" asarini yozib tugatadi. Uch yili Makkada yashagandan sung az-Zamaxshariy vatanini kumsaydi. Xorazmga kaytib, bir necha yil yashadi va 538 yilning arafa kechasi (melodiy 1143 yil) Jurjoniya (hozirgi uragich) vafot etadi.

Zamaxshariy davrining buyuk olimi darajasiga kutarildi. U tilshunoslik, adabiyot, jugrofiyo, tafsir, xadis, fikx va ilm alkiroatga oid ellikdan ortik asarlar yaratdi. Ularning kupi bizgacha etib kelgan.

Mashhur tarixchi Ibn al-Kiftiyning e'tirof etishicha, u uz asrida arab tilida ijod kilgan ajamlilar (arab bulmaganlar) orasida eng buyugi bulgan.

Ibn Xallikon Zamaxshariyning tafsir, xadis, naxv, lugat, ilm ul-bayon buyicha buyuk imom, bu ilmlar buyicha uz davrining yagona ekanligini ta'kidlaydi.

Lingvistik faoliyati. Maxmud Zamahshariy buyuk olim sifatida uzidan keyingi avlodlarga boy ilmiy meros koldirdi. Ular ichida tilshunosliukka oid asarlari aloxida kimmatga ega. Zamaxshariy garchi arab bulmasa xam, lekin arab tili grammatikasiga doir bir kancha kimmatli asarlar yaratdi. Arablar: "Agar shu kusa, chulok bulmaganda, arablar uz tillarini bilmas edilar" - deb uning arab tilshunoslikgidagi buyuk urnini xakkoniy e'tirof etadilar.¹

¹ Уватов У. Номи улуг, сузи кутлуг.ю Абул-Косим Махмуд аз-Замашари, НОзик иборалар. Т., 1992, 16-17 бетлар

Maxmud Zamahshariy arab tili grammatikasiga doir "Al-mufassal" nomi bilan mashhur bo'lgan "Al mufassal fi sanhat al-ihrab?" (Fleksiya sanhati xakida mufasal kitob), "Al-muxojat bil-masoil an-naxviya av al-axajiy an-naxviya" ("Grammatik masalalarga oid jumboklar"), "Al-unmuzaj fi-n-naxvi") "Grammatik namunalar xakida"), "Samiym ul-arabiya") "Arab tilining negizi", "Al-mufrad va-l-muallif fi-n-naxvi" ("Grammatikada birlik va kuplik") , "Al-mufrad va-l-murakkab fi-l-arabiya") "Arab tilida birlik va kuplik") , "Al-amaliy fi-n-naxvi" (Grammatik koidalarda orfografiya), "Diviyvon ut-tamoyil" ("Asimlyatsiya xakida devon") kabi kator asarlar yaratdi. YUkorida sanalgan asarlarning uziyok, uning lingvistika soxasida nakadar sermaxsul kalam tebratganidan dalomat beradi.

Grammatikaga doir asarlari ichida "Al-mufassal" arab tili morfologiyasi va sintaksisini urganishda eng muxim kullanma sifatida SHarkda ham, Garbda ham katta shuhratga ega bo'lgan. U Uvatovning ta'kidlashiga kura, xatto SHom (Suriya) xokimi Muzaffariddin Muso kimda-kim az-Zamaxshariyning ushbu asarini yod olsa, unga besh ming kumush tanga pul va sovga kilishga vahda bergan. Bir kancha kishilar az-Zamaxshariyning bu asarini yod olib, mukofotga sazovor bulganlar.

Zamaxshariyning bu kitobi shu darajada shuxrat kozonganki, kupchilik munakkidlar uni Sibovayxiyning "Kitob Sibavayx"iga kiyosladilar va ana shu kitob bilan bellasha oladigan buyuk asar ekanligini bayon kiladilar.

Bulardan tashkari, Maxmud Zamaxshariyning "mukaddimat ul-adab" ("Adabiyotga kirish") asari tilshunoslik uchun xam katta axamiyatga ega.

Bu asar Xorazmshox Alouddavla Abdulmuzaffar Otsizga bagishlab yozilgan. asar besh kismdan iborat: 1) ot, 2) fe'l, 3) boglovchilar, 4) ot uzgarishlari, 5) fe'l uzgarishlari.yu

Bu lugat kitob usha davrda arab tilining istehmolda bulgan barcha suzlari, iboralarini kamrab oladi. Bu suzlarning ma'nolari, jtimologiyasi etarli darajada keng sharxlanadi.

"Mukaddimat ul-adab" fors tilidan tashkari, chigatoy (o'zbek), mugul, turk tillariga xam tarjima kilingan. Asarning chigatoy tiliga tarjimasi muallifning uzi tomonidan bajarilgan bulishi kerak. CHunki asar Xorazmshox Otsizga bagishlanganidan, kitobni u oson tushunishi uchun asarning arabcha matni bilan birgalikda chigatoy tilidagi tarjimasini berganligi tabiiydir.

Zamaxshariyning "mukaddimat ul-arab" asarining bir necha kulyozmalari O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi SHarkshunoslik institutida saklanmokda.

Bu asarning bizgacha etib kelishi tilshunoslikning katta baxti sanaladi. CHunki u o'zbek tili tarixini urganishda kimmatli va ishonchli material bulib xizmat kiladi. SHuning uchun xam bu xakda Sadridin Ayniy: "Mukaddimat ul-adab" asari o'zbek tili uchun butun dunyoning xazinasini bilan barobardir", - deb yozgan edi.

"Mukaddimat ul-adab" asari asrimizga kelib kupchilik tilshunos olimlarning dikkatini tortdi. Ayniksa, N.N.Poppe va A.K.Borovkovlar uning to'g'ul va o'zbek tiliga doir qismini tadqiq kilishda va butun asarning matnini nashr etishda katta xizmat kildilar.

TAYANCH ATAMA (IBORA) LAR:

"Savt" va "harf" tushunchalari. Nazallik belgisi. Gunna atamasi "Al-mufassal", Saljuqlar saltanati

NAZORAT SAVOLLARI

1. Nima uchun Ibn Sino qomusiy olim sanaladi?
2. «Asbobi xudut al-huruf» asari qachon yaratilgan, uning qanday nashrlari mavjud?
3. «Asbob» asari nimaga bag'ishlangan va uning qanday o'ziga xosligi mavjud?
4. Asarning tuzilishi haqida mahlumot bering.
5. Olim fizikaviy tovushlar bilan nutq tovushlarini qanday farqlaydi?
6. Ibn Sino nutq organlari haqida qanday fikr yuritadi?
7. Zamaxshariyning hayoti va ijodi haqida nimalarni bilasiz?
8. Uning lingvistik faoliyati haqida to'xtaling?
9. «Al-mufassal» asari nima uchun muhim qo'llanma sifatida baholanadi?

10. «Muqaddimat-ul-adab» asarining tilshunoslik uchun qimmatini nimada?

ADABIYOTLAR:

1. Abul Kosim az-Zamahshariy. Nozik iboralar. Toshkent., 1992
2. Zvegentsseva V.A. Istoriya arabskogo yazqkoznaniya. Kratkiy ocherk MGU, 1983
3. Poppk N.N. Mangolpskiy slovarp. "Muqaddimat-al-adab" I-II chastp (M.-L. 1938), III chastp (M.-L. 1938)
4. Rustamov A. Maxmud Zamahshariy. Toshkent 1971
5. Kvatov K. Noma ulug', so'zi qutlug'. Toshkent, 1992
6. Nurmonov A., Mahmudov N. O'zbek tilshunosligi tarixi. Toshkent, 2000

6-MA'RUZA. ALISHER NAVOIYNING FALSAFIY QARASHLARI

R E J A:

1. Alisher Navoiyning falsafasida umumiylik va xususiylik mohiyat va xodisa dialektikasi.

2. Til va nutk
3. SHakl va mazmun
4. Til va tilning paydo bulish xakidagi karashlari

Alisher Navoiy buyuk shoir, istehdodli adabiyotshunosgina emas, balki ulkan faylasuf olim xamdird. U tasavvuf falsarasining yirik vakillaridan biridir. Alisher Navoiy olamdagi narsalar va ularning mohiyati, insonning paydo bulishi kabi bir kator masalalar buyicha kimmatli fikrlar bildiradi.

Xozirgi falsafada aloxida rutba (kategoriya) sifatida ajraladigan va kuprok buyuk faylasuf Gegelp nomi bilan boglanadigan umumiylik va xususiylik, mohiyat va xodisa, imkoniyat va vokealik dialektikasi SHark falsafasida, shuningdek, Alisher Navoiy mansub bulgan tasavvuf falsafasida allakachonlardan buen e'tirof etilgan.

Araste va uning isdoshi Farobiylar moddaning obpektligini tan oladilar. Ularning ta'kidlashlaricha, moddaning mavjudligi bizning idrok kilish kobilyatimizga boglik, deb xisoblash mumkin emas. Tabiatan mavjudlik - tabiiy sifat va mohiyatlardir. Bu ularning biz idrok kiladigan va xis etadigan belgisidir. SHu bilan birgalikda, bilishning ikki boskichi - xissiy va nazariy bilishi xam bir-biridan farklay olganlar. Xissiy bilish ushlab, kul tekkiziyu, yalab, xidlab sezish orkali bulish. yoki kurish orkali amalga oshishi mumkin. Birinchisi, kuvvai lomisa, ikkinchisi esa nigoxiy atamalari bilan nomlanadi.

Xissiy bilish nazariy bilishga olib boradi. Bunda xususiylik orkali mohiyat, vokealiklar orkali imkoniyat aniklanadi. Hissiy bilishga berilayotgan narsalar beaded kup va ular turli uzgarishlarga uchrashi mumkin. Lekin bu kzgarishlar ostida yashirinib yotgan bitta umumiy takrorlanuvchi belgi xar bir uzgaruvchida mavjud buladi. Xar kaysi uzgaruvchidan mavju bulgan umumiy takrorlanuvchi belgi javxar, uzgaruvchilar esa oraz deb nomlanadi.¹ SHunday qilib javhar orqali namoen buladi.

Bu fikrlar XIX asr tilshunosligida buyuk inkilob xisoblangan strukturalizm goyalari, xususan , F.de Sossyur, Lui Elmslev karashlarining negizi emas. Lui Elmslev uzgarmas narsani konstanta deb nomlaydi.

Alisher Navoiy tasavvuf falsafasiga asoslangan xolda, olam, tabiat butun mavjudot yagona zotning kurinishlari (tazoxiri) dir, - deydi. Bir vaktlar u uzi uzida edi. Mikdor jixatidan benixoyat, sifat jixatidan xilma-xil va shaklan bexisob konkret narsalarning imkoniyatlarini uzida saklar, shu imkoniyatlarning mujassamiday yashar edi. Bu vaktida u komil emas edi. Navoiy fikriga kura, "guncha" edi. U uzidan imkoniyatlarni ruyobga chikarmokchi, abstrakt

¹ Farobiy. Fozil odamlar shaxri. T. 1993, 73-74 betlar

moxiyatini konkretlashtirmokchi (konkretlikka aylantirmokchi), guldek ochilmokchi, kamolotga, erishmokchi, uz xusunini, maxoratini namoyon etmokchi va shu bilan uz xusnini chin guzalliklar, vokeliklar orkali kurib tomosha kilmokchi buldi.²

Tabiat, bu dunyo guyo oyna (mirhot), unda xudoning aksi mavjud. Borlikdagi xamma narsada xudodning (yorning) jamoli:

"CHu er aylar emish barcha erda javlon xusn,
Teng uldi kahba bilan dayri sumoyun menga"

("Xazoyin ul-maoniy")

Xudo uzining komilligini inson kiefasida topdi. SHuning uchun xam barcha mavjudotlar ichida sharifi insondir:

Barchasini parsi latif aylading.
Barchadin insonni sharif aylading.

("Xazoyin ul-maoniy")

Navoiy Olloxning tazoxirlari bulgan narsalar olamida insonning rolini uluglaydi. Fariddin Attor falsafasida Ollox eng komil, borlik, tabiat, shu jumladan, inson esa xech kanday komillikka ega emas, u aldanchilar, insonni inson bulib. yashab turishi vaktinchalikdir, deb karaladi. SHuning uchun falsafasiga binoan, bu aldokchi, foni dunyodan voz kechib, etti vodiyan (1) Talab vodiysi, 2) Ishk vodiysi, 3) mahrifat vodiysi, 4) istigno vodiysi, 5) tavaaxud vodiysi, 6) xayrat vodiysi, 7) fakru fano vodiysi dan utib, Ollox vasliga vosil bulishga intilish kerak.

Xakikiy, adabiy baxtli xayot ana shunda ekanligi ta'kidlansa, Navoiy falsafasida Ollox tabiatdagi xar bir narsada zuxur etishi bayon kilinadi. Ollox uzining kamolotga erishishini orzu kilib, bunga nixoyat darajada guzal va boy tabiat, jumladan, inson shaklida zuxar etishi bilan erishdi. Buni etti vodiyan tub, semurgni ahtargan uttiz kush obrazi orkali ochik ifodalaydi:

Kim, kilib Semurgni uttiz kush xavas,
Uzlarin kurdilar, ul Semurgu bas.

Demak, tabiatdagi barcha narsa va xodisalar kandaydir zotning Olloxning tajallisidir. Bu tabiat zotning bevosita kuzatishda berilgan turli kurinishlaridir.¹

Navoyining umumiylik-xususiylig, moxiyat-xodisa, imkoniyat-vokelik munosabati tugrisidagi karashi guzal podsho xakidagi xikoyasida xam erkin ifodalanadi. Xikoyada bayon kilinishicha, bir podshox (olloxga ishora) bulib, u nixoyatda guzalligi bilan barchani maftun etgan. Uni kurish xammaning orzusi buladi va bu orzuga erishmok uchun kup azob chekadilar. Buni bilgan usha podshox katta kasr soldirishni va unga katta oyna (mirhot) urnatishni buyuradi. Bundan maksadi shuki uning xusniga, shaydo bulganlarning, unga intilganlarning, bu yulda azob chekayotganlarning orzularini kondirish edi. Podsho bu oynaga uz aksini soladi, unda gavdalanadi. Natijada odamlarning shu oynaga nazar tashlashlari uni kurgan bilan teng buladi:

Kasr - tan, anda kungulni kuzgu deb bil.
Kuzguda iloh xusnini nazzora kil.

Tazoxirlar zot xakida doimo xam tugri mahlumot bera bermaydi. kupincha u kishini aldashi mumkin. SHuning uchun xam olamni bilishni Alisher Navoiy ikki darajaga buladi: faxmiy bilish va idrokiy bilish. Faxmiy bilish kupincha idrokiy bilishga tusik bulishi mumkin. Lekin idrokiy bilishgina borlik xakida tugri va ilmiy xulosa beradi. Buning uchun bizning xissiy bilishimizga berilgan xususiylig kurinishlarni bir-biriga solishtirish va ular urtasidagi umumiy jixatlarni aniklash va ana shu umumiy belgi asosida xususiyligklari mahlum umumiylikka birlashtirish lozim buladi. Agar kishi faxmiy bilish darajasida kolib, xususiyligklarni umumiylikka birlashtira olmasa, u hakikiy obhektiv bilimga erisha olmaydi.

² Зоҳидов В.Ю. Лисон ут-таур фалсафаси ҳақида мулоҳазалар. Улуг ўзбек шоіри тупламі. Т., 1948, 107-бет

¹ Зоҳидов В. Уша асар. 118-бет

Buni Alisher Navoiy "Lison uttayr" da kurlarning fil xakidagi xissiy bilimini bayon kilish orkali juda anik bayon kilib beradi.

Alisher Navoyining umumiylik va xususiylik, zot va tadallilar munosabatini belgilashi uni tilshunoslikda til va nutk munosabatini ochish, til va nutk birliklarini mahlum darajada farqlash imkoniyatini berdi.

Xozirgi tilshunoslikda til va nutk bir-biridan izchil ravishda farqlanadi. Til va nutk munosabatini ochish lingvistik tadkikotlarda muxim axamiyatga ega. SHu kunga kadar bu ikki xodisani bir-biridan farqlash dastlab mashxur nemis olimi Ailgelpm Gumbolpddan boshlangan va u SHveysariya olimi Feridinaid de Sossyur lingvistik tahlimotining asosini tashkil kiladi, deb xisoblab kelindi.

Lekin Alisher Navoyi asarlariga ehtibor berilsa, bu olim Vilgelpm Gumoolpdt va F.de Sossyurlardan ancha oldin til va nutk xodisalarini bir-biridan farqlaganining guvoxi bulamiz. A.Navoiy imkoniyat tarzidagi suz (til birligi) soxibi ixtisos (suzlovchi) tomonidan turli xil jilvalantirilishi (nutk birligi sifatida reallashtirilishi) mumkinligini bayon kiladi.

"Muxokamat ul-lugatayn" asarida ta'kidlanishicha, suz guyo durdur. Durning joylashish urni dengiz tubi bulsa, suzning joylashishi urni kungildir (xotiradir).

Dur gavvos yordamida dengiz tubidan tashkariga chikarilib jilvalantirilsa va gavvosning kiymati javxarni jilvalantira olish kobiliyatiga karab belgilansa, suz soxibi ixtisos tomonidan kungildan tashkariga olib chikiladi va notikning kiymati suz kullash maxoratiga, uni jilvalantira olish kobiliyatiga karab belgilanadi. Dengiz kahrada xarakatsiz, imkoniyat tarzida turgan durlar gavvaos yordamida xarakatga keltirilsa, kungil tubidagi imkoniyat tarzidagi suzlar xam suzlovchi tomonidan nutkiy jaraenda uz jilvasini topadi.

Bundan kurinadiki, imkoniyat va vokelik, umumiylik va xususiylik dialektikasi Gegeldan ancha oldin Alisher Navoiy asarlarida uz aksini topgan. Til va nutkining yukoridagidek farqlanishi xam ana shu dialektikaning tilda namoyon bulishining kurinishidir.

SH a k l v a m a z m u n. Alisher Navoyi falsafasida shakl va mazmun dialektikasi xam markaziy urinni egallaydi. SHakl va mazmun uzaro uzviy boglik. SHu bilan birgalikda mazmun shaklga nisbatan birlamchi sanaladi. SHakl va mazmun dialektikasi tilda til va tafakkur dialektikasi orqali namoyon buladi. Alisher Navoiy til va tafakkurning uzaro chambarchas boglikligini, til fikrni (ma'nini) ifodalovchi kudratli vosita ekanligini, ana shu vosita insonni komil insonga aylantirganini, xayvondan judo kilganini e'tirof etadi. Alisher Navoyining til va tafakkur dialektikasi e'tirof etadi. Alisher Navoyining til va tafakkur dialektikasi xakidagi karashini kuyidagi fikri orkali paykash mumkin: "CHun alfoz va mazkur maxlukotdir murod ma'nidur".¹ YA hni olamdan olgan mahlum bilimizni ifodalash, bosh kalarga etkazish uchun gapiramiz.

Umumiy tilshunoslikning otasi sanaluvchi Vilgelpm Gumbolpdt Alisher Navoiydan bir necha yuz yil keyin bu fikrni takrorlaydi Uning bayon kilishicha, til fikr ifodalaydi. Akliy faoliyat mutlok ruxiydir. U nutk tovushlari yordamida moddiylashadi va sezgi ta'siriga berilish imkoniyatiga ega buladi.

Alisher Navoiy suzlarda shakl va ma'no dialektikasi xakida xam fikr yuritadi. Uning fikricha, mahlum ma'no turli shakllarda jilva namoyish kilishi, biri orkali ulik badanga tiriklik bagishlash, ikkinchisi orkali esa tirik tanga zaxri xalokat etkazish tmumkin.

Mahlum ma'noning turli shakllarda ifodalanishi mumkinligi, shuning uchun xam nutkda bu shakllardan suzlovchining maksadga muvofigini kullash imkoniyati borligi, uni kan darajada amalga oshirish suzlovchining maxoratiga boglikligini kursatish orkali suzlovchini notiklik sanpatini egallashga dahvat etadi. Alisher Navoiyning bu fikrlari keyinchalik lugaviy uslubiyat (leksik stilistika) deb yuritiluvchi tilshunoslik soxasining rivojiga asos bulib xizmat kildi.

¹ Алишер Навоий III том Т., 1948, 175-бет

Alisher Navoiy tilning paydo bulishi, tillarning vujudga kelishi xakida xam fikr bildiradi. SHoirning : "Inson suz ayladi judo xayvondin" misrasi olimlar urtasida xilma-xil fikrlar yuritilishiga, turli baxslarning tugilishiga sababchi bo'ldi.

Ayrim olimlar Alisher Navoiyning yukoridagi fikri asosida insonni maymundan paydo bo'lganiga ishora kiladi, demak, shoir dunyoning evolyutsion yo'l bilan paydo bo'lganini, bir turdan ikkinchi turning kelib chikkanini CH.Darvindan ancha oldin ehtibor kiladi, degan xulosaga keladilar. SHuning uchun ular Alisher Navoiyni materialist deb baxolaydilar.¹ Bu bilan Alisher Navoiyni uzlarining "izm" laridan biriga tushirmokchi buladilar.

Aslida Alisher Navoiyning yukoridagi misrasi islom falsafasidagi dunyoning paydo bulishi, insonning dunyoga kelishi haqidagi karashlardan birining namoyon bulishidir.

Insonning paydo bulishi xakida musulmon olamida mutafakkirlar juda kadimdan buyon fikr yuritadilar. Ularning bahzilari dunyoning yaratilganligini e'tirof etsalar, boshkalari dunyo asta-sekin yaralgan deb xisoblanadilar. Xar ikki karash fakat musulmon olamidagina emas, balki xristianlar, katoliklar va boshka dinlarda xam uchraydi.

Xususan, "Kurhon karim"da Ollox kudratli, xamma narsani yaratuvchi sifatida tahriflanadi. Xuddi shunday karash "Injil" da xam uchraydi. Har ikki mukaddas kitobda erda xayotning paydo bulishi, insonning yaratilishi, odam ajdodining jannatdan kuvilishi xakida bir xil fikr yuritiladi. SHu bilan birgalikda "Kurhon" ning uzida tirik organizm evolyutsiyasi xakida xam fikr bayon kilinadi. Bundan kurinib turibdiki, mukaddas kitoblarning uzida olamning va insonning paydo bulishi xakida ziddiyat mavjud. Bu ziddiyat Alisher Navoiy ijodida xam aks etadi.

Dunyoning asta-sekin yaralishi (yahni evolyutsion tarakkiyot) xakidagi fikr dastlab islom olamida arablarning komusi sanaluvchi "Ixvan as-safo" ("Tozalik og'alari") asarida uchraydi. Bu asar X asrning ikkinchi yarmida Basrada yaratilgan bulib, usha davrning turli masalalari bo'yicha fikr yurituvchi 51 makolotni uz ichiga oladi.

32-makoloti olamning paydo bulishiga bagishlangan. Unda bayon kilinishicha, dastlab olam yaratilishining sababchisi sanaluvchi moxiyat mavjud bulgan. Bu absolyut YAxlitlik xali son emas, balki barcha sonlarning kelib chikishiga manba sanalgan. Uning borlikda moddiylashuvi ikkinchi tarakkiyot boskichi - aklni vujudga keltirdi. Akl sezgi organlarimiz ta'siriga beriluvchi shaklga ega buldi. Undan uchunchi boskich - nafs kelib chikdi, Nafs turtinchi boskich - xayuli (modda)ni keltirib chikaradi. Potensial modda ulchovga ega buldi va real moddaga aylandi. Dunyo shar shaklini oldi. SHarning ichi zidlana boshlaydi. Torayib-torayib, etti sayyora xosil buldi: Saturn, YUjupiter, Merkuriy, Kuyosh, Mars, Venera, Oy. Oy satxi ostidan moddiy dunyo efir, xavo, suv va er satxi boshlanadi. Bu neoplatoncha talkin Basra falsafa maktabi vakillari tomonidan Arastu tahlimoti bilan omuxta kilindi. Bunga muvofik yaratuvchidan boshlangan xarakat eng kuyi satxda - YOrda o'chmaydi, balki teskari xarakat - ko'tarilish xarakati boshlanadi. Eng kuyi elementning sof vakili mineral sanaladi. Mineral evolyutsiya imkoniyatiga ega. Uz tarkibini murakkablashtira borib, oralik zveno bulgan pupanak orkali yukorirok tarakkiyot boskichiga kutariladi va uzidan usimlikni xosil kiladi. Usimlik xam uzok muddatli tarakkiyot yulini bosib utib, oralik boskich - ikki jinsli palpma orkali xayvonotga ailanadi. Xayvonot olami xam rivojlanishda davom etib, oralik boskich sanaluvchi maymun orqali insoniyat olamni vujudga keltiradi.

Boshlangan xarakat tuxtalmasligi kerak. Demak, insoniyat olami xam rivojlanishda davom etishi, rivojlanishga sabab bulgan iloxiy kuchga aylanishi kerak. SHunday kilib, "Ixvon as-safo"da olamning asta-sekinlik bilan, evolyutsion rivojlanish orkali bir turdan ikkinchi turning kelib chikishi bayon kilinadi. Lekin insoniyat olamidan keyingi tarakkiyotga kelganda turli fikrlarning tugilishiga sababchi buladi.

basra filosoflari insonning iloxiyatga aylanishi uzini xayvoniy xirslardan tozalashi, poklanishi, ma'naviy va tafakkur kobiliyatining tula kamolot boskichiga kutarilishi orkali ruy

¹ Дониёров Х., Сапокулов У. Алишер Навоӣ - тилшунос олим. Т., 1990. 17-бет

beradi, deb xisoblaydilar. Ular xayvoniy xirslar xukmronligi, nafs balosi ostidi yashaydigan insonlar xayvondan utsun emas, balki undan kura tubanrok ekanligini bayon kiladilar.¹

Xuddi shunga uxshash fikr Abu Nasr al Farobiyda xam uchraydi. U uzining "Fozil odamlar shaxri" asarida eng kuyi moddanig asta-sekin rivojlana borishi, uzidan yukorirok moddaga - Er, suv, xavo, olovga; undan sung yanada yukorirok rivojlanib, mineralga, undan sung usimlikka, sung xayvonotga va undan sung suzlovchi xayvonotga aylanishi xakida fikr yuritiladi. Suzlash kobilyatiga ega bulgan maxlukot tarakkiyotning sunggi boskichi sifatida baxolanadi.²

Alisher Navoiy xam insoniy suzlash kobilyatiga ega bulgan maxlukot xisoblaydi. Inson komillikka erishmok uchun uzini xayvoniy xirslardan tozalash lozimligini ta'kidlaydi.

bunday kurinib turibdiki, Alisher Navoiy insonni suz orkali xayvondan ajralib chikkanligi xakidagi fikri islom olamida mavjud bulgan insonning paydo bulishi xakidagi anhanaviy karashning davomidir.

Dunyodan tillarning kupligi bu tillarning paydo bulishi xakida kupdan buen mutafakkirlarni uylashga majbur kilib keldi. Natijada tillarning kelib chikish xakida xilma-xil fikrlar maydonga keldi. Bulardan eng keng tarkalgani barcha mukaddas kitoblarda bir xil takrorlanuvchi Nux xakidagi afsonadir. Dunyodagi barcha xalklar va ularning tillarining tarkalishi Nux va uning farzandlarining tufonda turli tomonga tarkalishi bilan izoxlanadi. Alisher Navoiy xam "Muxokamat ul-lugatayn" asarida tillarning kelib chikishi xakida fikr yuritar ekan, turk, fors, xind xalklari bir ajdoddan - Nuxdan tarkalganini kuyidagicha bayon kiladi: "... Nux paygambar (salavotul-loxu alayx) ning uch ugligakim, Efas va Som va Xomdur etishur. Va bu mujmal tafsili budurki, Nux (alayxissalom) tufon tashviriddin najot va aning maxlakasidin xaet topti, olam mahmurasida bashar jinsidin osor va inson navhidiy namudor kolmaydur erdi. Efasniki, tavorix axli Abut-turk bitirlar. Xito mulkiga yibordi va Somniki, Abul - furs bitirlar. Eron va Turon mamolikining vasatida voli kildi va Xomniki, Abul-Xind debdurlar. Xindiston vilodiga uzatdi. Va bu uch paygambarzoda avlod va atboi mazkur bulgon mamolikda yoyidilar va kaliy buldilar".³

Er yuzida insonning paydo bulishi va turli tillar xamda bu tillarda gaplashuvchi xalklarning kelib chikishi xakida "Ibtido" kitobida shunday yoziladi: "... shu zailda osmon bilan Er xamda ulardagi borlik mavjudot yaratilib buldi. Xudo uz faoliyatini ettinchi kunda tamomlab, u kunda kilgan ishlaridan tindi ... Xudovonda Karim eru osmoni buned etgan edi-yu, lekin xali erga yomgir yogdirmagan va erda ishlash uchun odam xam yaratmagan edi. Er yuvuda xech kanday dasht butasi va xech kanday dala giyoxi xam usmagan edi. Fakat erdagi bug kutarilib, butun er yuzini sugorib turar edi. Usha paytda Xudovonda Karim erning tuprogidan odamni yasab, uning dimogiga xayot nafasini pufladi. SHu yusinda odam tirik jon buldi".¹

islomgacha bulgan kadimgi turk yodgorliklarida xam insonning paydo bulishi xakida xuddi shunday fikr bayon kilinadi. Masalan, Kul tegin yodnomasida shunday deyiladi: "U za kuk tangri, asra yagio' yir kilintukta, akin ara kisi ugli kilinmis".

"Istido" kitobida Odam ato bilan Momo Xavo nikoxidan SHit tugilgani va SHitdan Nuxgacha yana etti avlod utgan (Enush, Kenan, Maxolalil, Ered. Xanux, Matushalox, Lomak), Lomakdan yupanchik sifatida Nux tugilgani, uz navbatida, Nux besh yuz yoshga kirib, uch ugil (Som, Xom, Efas) kurgani xakida fikr yuritiladi. SHuningdek, Tufon tufayli Nux va uning avlodlari xamda Nux kemaga olib olgan jonzotlargina saklanib kolgani, Er yuzidagi barcha xalklar Nux avlodlaridan tarkalganligi bayon kilinadi.²

¹ Бу ҳақда қараг: Беретельс Е.Э. Избр.труды. "История литературы і культуры Ирана". М., 1988 с. 346-347

² Абу Наср Форобіу. Фозіл одамлар шаҳрі. Т., 1993, 149-159 бетлар

³ Аlisher Navoiy. Таплаган асарлар. III том, Т., 1948, 175-бет

¹ Инжил. "Ibtido" кісмі, 2-боб, 3-бет

² Инжил. "Ibtido" кісмі, 10-боб, 16-бет

bundan kurinadiki, insonning paydo bulishi, tugrirogi, yaratilishi xakidagi goya "Ibtido" dan "Kurhon" ga utgan va Alisher Navoyi "Kurhon" goyasini uz asariga olib kirgan.

Tayanch atama (ibora) lar

Rutba, Kuvvai lomisa, nigoxiy, Jvxar oraz, Konstanta, Nux tofuni

NAZORAT SAVOLLARI

1. A.Navoiy falsafasida mohiyat va xodisa dialektikasi qanday e'tirof etilgan?
 2. Navoiy moddaning obhektivligini qanday belgilaydi?
 3. Navoiy insonning o'rnini qanday belgilaydi?
 4. «Lison-ut-tayr» falsafasi haqida to'xtaling?
 5. Til va nutq hodisalari o'rtasidagi munosabatni qanday izohlash mumkin?
 6. Navoiy «Muhokamat-ul-lug'atayn» asarida so'zga qanday tahrif beradi?
 7. Olim falsafasida shakl va mazmun dialektikasi qanday o'rin tutadi?
 8. Til va tillarning paydo bo'lishi haqidagi qarashlar haqida umumiy ma'lumot bering
 9. «Qur'oni Karim»da bu haqida qanday so'z yuritiladi?
- A.Navoiy tillarning paydo bo'lishi hususida qanday fikr yuritadi?

ADABIYOTLAR

1. Bertelg's E.E. Izbrannqe trudq. Istoriya literaturq i kulg'turq Irana". M., 1980
2. Doniyorov X., Sanakulov U. Alisher navoiy - tilshunos olim. Toshkent, 1990
3. Zohidov V. "Lison-ut-tayr" falsafasi hakida muloxazalar. - Ulug' o'zbek shoiri. Toshkent. 1948
4. Nurmonov A., Mahmudov N. O'zbek tilshunosligi tarixi. Toshkent. 2000

7-MA'RUZA. ALISHER NAVOIY - CHOG'ISHTIRMA (KONTRASTIV) LINGVISTIKANING OTASI

R E J A:

1. CHog'ishtirma tilshunoslik tarixidan.
2. Alisher Navoiyning fonetik qarashlari
3. Leksik qarashlari
4. Ikki til leksemalarining qiyosi

Alisher Navoiy o'zining badiiy ijodini o'z ona tilida qilish, ona tilining butun guzalligi, tarovatini amalda kursatish bilangina cheklanib kolmadi. Ona tilini usha davrda badiiy adabiyot uchun anhana bulib kolgan fors tiliga kiyslab, bu tildan xech kanday kolishmasligini, xatto bahzi urinlarda ustunrok turishini ilmiy jixatdan xam isbotlab bermokni uz oldiga maksad kilib kuydi. Ana shu maksadga 1499 yilda ikki til muxokamasiga - ikki tilning chog'ishtirma grammatikasiga bagishlangan maxsus asarini - "Muxokamat ul-lugatayi" asarini yaratdi.

Alisher Navoiyning bu asarining maydonga kelishi bilan dunyo tilshunosligida yangi saxifa ochildi. Tilshunoslikning xozirgi kunda chog'ishtirma (kontrastiv) lingvistika deb yuritiluvchi yangi yunalishiga asos solindi. CHogishtirma tilshunoslikning uziga xos xususiyati shundaki, ikki sistemaga mansub bulgan tillar tilning barcha satxlari buyicha bir-biriga solishtiriladi. Ularning uziga xos xususiyatlari ochib beriladi.

Afsuski, tilshunoslik tarixida chog'ishtirma tilshunoslikning paydo bulishi garo tilshunoslarining nogmi bilan boglanadi va bu tilshunoslik yunalishining boshlanishi XIX asrdan deb belgilanadi. Bu fikrlar garb olimlarining Alisher Navoiy asarlaridan bexabarligidan paydo bulgan. Agar boxabar bulganlarida edi Alisher Navoiyning lingvistik merosidan xayratga tushgan va, suzsiz, chog'ishtirma tilshunoslikning otasi deb xisoblangan bulardilar. CHunki "Muxokamat ul-lugatayn" asarida chog'ishtirma tilshunoslikning barcha belgilari mavjuddir.

Birinchidan, solishtirish uchun turli sistemadagi tillar olinadi. Turkiy tillarga mansub bulgan turk (o'zbek) tili bilan Xind-Ovrupo tillarining eroniy tarmogiga oid sart (fors-tojik) tili

uzaro mukoyasa kilinadi. Urni bilan somiy tillariga mansub bulgan arab tiliga xam solishtiriladi.

Ikkinchidan, solishtirish uchun keltirilgan daliliy misollar tasoddiy bulmasdan, tilning butun sistemasini kamrab oladi. Fonetik tuzilishdan tortib sintaktik tuzilishgacha xar ikki sistemaga mansub bulgan tillar solishtiriladi. Ularning uziga xos tomonlari xakida kimmatli xulosalar beradi.

Ikki tilning muxokamasiga bagishlangan bu asar Alisher Navoiyning turk (o'zbek) jonli suzlashuv tilining xam nakadar chukur uzlashtirgan, xar bir kavmning til xususiyatlari uning ehtiborida bulgan, ayni paytda fors va arab tillarining xam zukko bilimdoni sanalgan keng kamrovli tilshunos ekanligini tula namoyin etadi.

Bu asar orkali Alisher Navoiyning fonetik, leksik, grammatik karashlari xakida mahlum tasavvurga ega bulamiz.

Fonetik karashlari. Alisher Navoiy davrining ulug allomasi sifatida uzigacha bulgan fors va arab tillaridagi ilmiy bilimlarni tula egalladi. Arab filologiyasi chashmalaridan baxramand buldi. Arablarning boy lingvistik tahlimotidan madad oldi. Hususan, arab tilshunosligida yaxshi ishlangan fonetik tahlimot Alisher Navoiyga kuchli ta'sir kildi. SHuning uchun xam u tovushlarning artikulyatsion-funksional tomoniga katta ehtibor beradi va shu belgiga kura (garchi u fonema atamasini kullamagan bulsa-da) tovush tipini-fonemani belgilaydi. Fonema va xarf munosabatiga ehtiborni jalb kiladi. Ular bir-biriga doimo xam mos kelavermasligi, bir xarf bir necha fonemani ifodalashi mumkinligini baen kiladi. Masalan: "YOy" xarfi turt fonemani, "vov" xarfi xam turt fonemani bildirishini aytadi.

Fonemani suv va morfemalarni moddiy jixatdan shakllantiruvchi va ularni bir-biridan farklovchi birlik sifatida tushunadi. SHuning uchun xam suz tarkibida bir xil fonetik vaziyatda kelgan tovushni boshkasiga almashtirib, ma'no farqlash belgisiga karab fonologik vazifa bajarish yoki bajarmasligini aniklaydi. Bunday usul asrimiz boshlarida Praga lingvistik maktabida va Amerika dekskriptiv tilshunosligida kullanildi va distributsiya nomi bilan yuritildi.

Alisher Navoiy o'zbek tili unlilarining kator belgisi buyicha farklanishi xakida fikr yuritadi va buni $0 \sim 0$, $y \sim y$ zidlanishi asosida dalillaydi. Masalan o't, "olov" ot xarakat tur "tuzok", tyor "uyning turi"; ot "xarakat" o't olova, ut "yutmok", ut "kallani o'tga tutib, tukini kuydirish". YOki: ter "termok", ter (bunda nozikrok talaffuz kilinadi) "arok". shuningdek, "yoy" xarfi i,i va e fonemalarini ifodalanshini kursatadi.

Bu bilan Alisher Navoiy o'zbek tilida unlilarning chuziklik-kiskalik belgisiga kura xam farklanishini aytadi. Masalan, biz "I shaxs kuplikdagi olmosh", biz "bigiz". SHunday kilib Alishera Navoiy fonologik oppozitsiyalarda kator belgisi, mikdoriy belgi (chuziklik-kiskaklik) larni asosiy fonologik kimmatga ega bulgan belgilar sifatida e'tirof etadi.

Bundan tashkari, kofiyada fonetikaning axamiyatiga ehtibor bergan xolda turk (o'zbek) tilida kofiya imkoniyatlarining kengligini ishonarli misollar orkali ochib beradi. Masalan, aro so'zini saro, daro bilan xam, boda bilan xam kofiya kilish mumkinligini; erur suzini xur, dur bilan xam, gurur, surur bilan xam kofiya kilish mumkinligi, fors tilida esa bunday imkoniyatlar yukligini kursatadi.

Deksik karashlari. Alisher Navoiy SHark tilshunosligida mavjud bulgan leksika soxasidagi bilimlar bilan kurollangan. Ana shu bilim asosida turk tilining lugat boyligini kur satishga xarakat kiladi. Buning uchun xalk tilidan fors tilida ekvivalenti bulmagan bir kancha suzlarni topadi. Bular shunday suzlarki, "barchasi muxtojun ilayiyodurke" (extiyotli), takallum chogida kishi anga muxtoj bulur. Kup andokldurki, aslo aning mazmunini taxfim kilmok (ifodalamok) bulmas va bahziniki, anglatsa bulgay, xar lafz taxfimi uchun (ifodasi uchun) necha lafzni (suzni) tarkib kilmaguncha bulmas".

Ana shunday suzlarga turk tilidan kuyidagi yuzta fe'lni keltiradi: kuvormok, kurukshamok, usharmok, jiyjaymok, unгдаymok, chekrimak, dumsaymok, umunmok,

